**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**XITOYSHUNOSLIK FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

# XALQARO GLOBALLASHUVNING CHUQURLASHUVI SHAROITIDA XXRNING TASHQI SIYOSATDAGI YETAKCHI TENDENSIYALARI

**Bajardi**: “Jahon siyosati” ta’lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Fayzullayev Anvar Akram o`g`li_____________

**Ilmiy rahbar**: S.f.n., prof. Idirov U.Y. ______________

Toshkent – 2016

# MUNDARIJA

**Kirish**……………………………………………………………….……… **3**

**1-bob. Hozirgi globallashuv sharoitida XXR tashqi siyosatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xususiyati va uni o‘rganishning metodologik asoslari**…………………………………………………….…… **10**

1.1. Xalqaro globallashuv va uning mamlakatlar mustaqil tashqi siyosatiga ta’siri…………………………………………………….……….…...…. **10**

1.2. Hozirgi zamonaviy XXR tashqi siyosati rivojlanishining konseptual asoslari…………………………………………………...……….…… **19**

**2-bob. XXR tashqi siyosatining mohiyatini tashkil etuvchi yo‘nalishlar**……………………………………………………………………... **30**

2.1. XXR tashqi siyosatida “Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini amalga oshirilishi…………………………………………………...…… **30**

2.2. Xalqaro munosabatlarda manfaatlar uyg‘unligi va tengligini taminlash Xitoy tashqi siyosatining strategik yo‘nalishi………………………………… **40**

2.3. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi XXR tashqi siyosatining asosiy tendensiyalari…………………………………………………………….. **49**

**XULOSA**…………………………………………………………………... **63**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**………………………………………… **67**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda dunyoda ahamiyati va ko‘lami jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ular mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning sabablarini ko‘p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov takidlaganidek: “Biz jadal rivojlanib borayotgan va o‘zgarayotgan dunyoda yashayotganimiz sir emas. Xalqaro barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar maydonga chiqmoqda, nizolar va xavflarning xususiyati tubdan o‘zgarmoqda. Ko‘z o‘ngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya qiyofasida fundamental o‘zgarishlar yasaydigan chuqur jarayonlar ro‘y bermoqda[1].

Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog‘liq tizim bo‘lib bormoqda. Ushbu jarayonlarda mustaqil davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi siyosatning qay darajada tog‘ri tanlanishi va iqtisodiy yuksalishi ularning jahon siyosatidagi o‘rnini belgilab bermoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, XXI asrga kelib XXR o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudrati bilan jahon iqtisodiy siyosiy jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir eta oladigan qudratli davlatlardan biri sifatida namoyon bo‘la boshladi[2]. Bugungi Xitoyning xalqaro munosabatlardagi o‘rnining qay darajada ekanligini bevosita uning BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a’zosi ekanligi, ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish jihatdan ustunligi, Yadro quroliga ega davlatlardan biri sifatida tan olinganligi kabi omillar belgilab beradi. Xalqaro masalalarning yechimida XXRning faol qatnashuvi yildan yilga ortib bormoqda.  Bitiruv malakaviy ishi XXRning dunyo miqyosida tutgan o‘rni, shuningdek, Markaziy Osiyoda amalga oshirayotgan tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyati, unda joylashgan mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalarning ham ikki tomonlama ham mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida

---

[1]Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. SHanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutq. // Moskva shahri.  –T.11. –T.: O‘zbekiston, 2004. –B.169.

[2] O‘zbekiston-Xitoy: strategik hamkorlikning yangi ufqlari. // Xalq so‘zi. 2013 yil 13 sentyabr soni.

rivojlanib borishi va ushbu hamkorlikdan ko‘zlangan maqsadlarni chuqur tahlil qilishni taqazo etadi.

Takidlash joizki, XXR O‘zbekiston bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda doimiy hamkorlik qilib kelmoqda. Umuman olganda XXR va O‘zbekiston o‘rtasida aloqalar dinamikasining yuqoriligini va uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan hamkorlik ekanligini yaxshi tasavvur qilish uchun 1994 yilning 24 oktyabirida “O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risida bayonnoma”ni tilga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unda o‘zaro tenglik va do‘stlik tamoillariga asoslangan hamkorlikni yanada rivojlantirishdan har ikki mamlakat ham birdek manfaatdor ekani alohida ta’kidlangan. Shuningdek ikki davlat xalqlari o‘rtasidagi aloqalar, munosabatlar va o‘zaro hurmat an’analari shakillangani ham ko‘rsatib o‘tilgan[1].

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli:

“Tabir joiz bo‘lsa, biz xitoyliklar bilan bundan ikki ming yil burun birodarlashganmiz deyish mumkin. Bizning bu mamlakat bilan aloqalarimiz juda tezkorlik bilan rivojlanib borayotganining sababi ham shunda”[2].

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi aloqalar asosan uchta omil bilan belgilanadi. Birinchi omil Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekiston hududidan o‘tganligi va uning ikki mamlakatning tovar ayirboshlash va madaniy almashishdagi ahamiyati. Ikkinchi omil Xitoyning Markaziy Osiyo bilan chegaradosh bo‘lgani, shu sababli ikki davlat o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarining o‘rnatilganligi. Uchinchi omil terrorizm, ekstremizm, norkobiznes, ayirmachilik, ekologiyaning buzulishi kabi dolzarb muammolarni hal qilishdagi o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yilganligi. Xitoyning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, savdo yo‘llarining

---

[1]Ўзбекистон Республикаси билан Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асосий принциплари, ўзаро манфаатли ҳамкорликни янада ривожлантириш ва чуқурлаштириш тўғрисида баённома. // Халқ сўзи. 1994 йил 28 октябрь сони.

[2] Қ. Очил. Ўзбекистон-Хитой: Муносабатлар тарихида янги саҳифа. // Халқ сўзи. 1994 йил 28 октябрь сони.

o‘zgarishi, energetik infratuzilma rolining ortishi, yangi xavflarning umumiyligi mintaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada faollashishini talab qiladi. Xitoy shuningdek, O‘zbekistonning iqtisodiyotini rivojlanishida ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarining faol ishtiroki umumiy bozor, mintaqada tovarlar va xizmatlarning, mehnat va sarmoyaning yagona yondashuv, yagona qonuniy meyyor va qoidalar joriy etilgan, yirik va juda keng ko‘llamli bozorni shakillantirish imkonini beradi[1], -deb takidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov.

XXR strategiyasida ichki siyosati va tashqi siyosiy omillarning evolyutsiyasini o‘rganish xalqaro munosabatlardagi har bir tadqiqotchi va mutaxassis uchun o‘zining ahamiyatli taraflari bilan muhim deb o‘ylash mumkin. Xitoy davlatining hozirgi globallashuv jarayonida jahon siyosiy sahnasida, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o‘rni va uning yetakchilik tendensiyalarini ko‘rilishi va tahlil qilinishi hozirda siyosatshunoslik fanida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

XXR tajribasini o‘rganish, uning tashqi siyosatida bosgan qadamlarini tahlil qilish va undan chiqarilgan xulosalar hozirgi davrda ko‘plab mamlakatlarning ichki siyosati, siyosiy jarayonlarni o‘rganishda hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi va ma’lum davlatlarning amalga oshiradigan tashqi siyosatini tub mohiyatini tushunish uchun yordam beradi. Aynan davlatlar tashqi siyosatining xususiyatlarini o‘rganish esa, mutaxassis uchun juda ahamiyatli bo‘lgan yaqin kelajakda bo‘lajak voqealarni oldindan aytib berish qobiliyatini rivojlanishida o‘z yordamini beradi.

Xalqaro munosabatlarda XXRning turli sohalardagi o‘rnining ortib borishini hisobga olgan holda, O‘zbekiston ushbu mamlakat bosib o‘tgan yo‘llarni o‘rganishi va uning tajribasini ko‘rib chiqqan holda bu davlat bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni tahlil qilib, o‘rganib chiqish va tegishli takliflarni berish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

---

[1]Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch – qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq. Toshkent Sammitidagi nutqi. –T.12. –T.: O‘zbekiston, 2004. –B.218.

**Mavzuning oʻrganilganlik darajasi.** XXRning hozirgi globallashuvning chuqurlashuvi jararonida olib borayotgan tashqi siyosati va uning dunyo siyosatida tutgan oʻrnini oʻrganib, chuqur tahlil qilgan, ilmiy ish olib borgan Gʻarb olimlari qatoriga Fred Bergsten, Bates Gill, Nicholas Lardy, Derek J. Mitchellarni Evan S. Medeiros and M. Taylor Fravel, Joshua Kurlantzick, Wo Lap Lamlarni[1] keltirish mumkin.

Rus Xitoyshunos olimlaridan Mixeyev V.V, Anna Ter–pogasyan, Vorobyov V.Y, Timotenko L.M, Gudoshnikov L.M, Stepanova G, Kaukunov A, Perelomov L.S, Sveshnikov A.A[2], Xitoylik olimlardan Zheng Bijian, Qin Yaqing, Zhu Liqun, Huang Chao, Xu Xin, Jin Xide, Song Dexing, Shi Yinhonglar Xitoy tashqi siyosati va uning xalqaro munosabatlarda tutgan oʻrni haqida tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar[3].

---

[1] C. Fred Bergsten China's Rise: Challenges and Opportunities. // Washington Post, 2008; Nicholas R. Lardy The Future of China's Exchange Rate Policy. China's Rise: Challenges and Opportunities // Washington Post 2009. China's domestic economy and China in the world economy to China: The Balance Sheet // Public Affairs, 2006; Derek J. Mitchell China: coeditor of China and the Developing World: Beijing's Strategy for the 21st Century. 2007; Bates Gill. Rising Star: China's New Security Diplomacy. // Brookings Institution Press, 2007. (Revised edition in 2010, published in Japanese in 2014); Evan S. Medeiros and M. Taylor Fravel. "China New Diplomacy" // Foreign Affairs. November-December, 2003; Joshua Kurlantzick. Charm Offensive: How China's Soft Power Is Transforming the World. // Foreign Policy Research Institute, August 2007; Wo-Lap Lam, Willy, Chinese Politics in the Hu Jintao Era: New Leaders, New Challenges. // Armonk, New York. M.E. Sharpe, 2006.

[2] Михеев В.В Роль Китая в Глобализующемся мире. // Отечественные записки. –№3. 2008; Воробьев В.Я. О китайской идее построения экономического пространства Великого Шелкового пути // Россия в глобальной политике. –2014. –№3. Май-июнь. // Переломов Л.С. Сяокан Ден Сяопита - символ построения социализма с китайской спецификой. // Материалы международной крнфренции Государство и общество в Китае. –М., 2004; Каукунов А. Политика Китая в Шанхайской Организации Сотрудничества Центральная Азия и Кавказ, –2007. –№3; Бориполец К. Г. Китайский вектор глобального сотрудничества Северо-восточная и Центральная Азия: динамика международных и межрегиональ-пых взаимодействий. –М., 2004; Свешников А.А. Проблемы международной самоидентификации Китая в начале XXИ века. // Китай в мировой и региональной политике. История и современность. –М., 2005.

[3]袁鹏 [Yuan Peng], '中国真正的挑战是未来 5-10 年. 人民日报 2014; 陈岳 [Chen Yue], '中国当前外交环境及应对', 现代国际关系. 人民日报 2011// 陈抗; L. Hillman, Cai Tuo. 全秋华观念与中国对外的转型改革开放 30 年的外交哲学身世。世界经济与政治 号. 11, 年 2008; Qin Yaqing and Zhu Liqun,: 新国际主义与中国外交外交评论.号. 5, 年 2005; Qin Yaqing, '五政府文化与国际暴利一大国的强行崛起与和平发展，中国社会科学号. 5, 年 2004; Zhu Liqun and Huang Chao,: 中国参与国际体系的评估指标里挤相关缝隙，江海学刊号. 5, 年 2009; Xu Xin:, 論俄罗斯的实用主义外交，世界政治与经济论坛号. 4, 年 2006; Jin Xide,: '21 世纪日本外交的抉择，国际政治研究号. 1, 年 2008; Song Dexing and Shi Yinhong,: '世界政治中印度和平崛起的现实与强劲， 南亚研究, 号. 1, 年 2010; 顾清扬. 财政集权与地方政府行为变化– –从援助之手到攫取之手//经济学(季刊) .托卡耶夫：《在独立的旗帜下-哈萨克斯坦外交概论》，阿拉木图"比 利姆"出版社。1997 年版。; 阿·卡赛莫夫. 伊·瓦斯金：《乌兹别克斯坦共和国外交的基本方向》，塔 什干"乌兹别克斯坦"出版社，1994 年版。; 亚民族和地区冲突丛书之 –中亚和高加索》，莫斯科，"全球"出 版社，1997 年版。// 薛君度, 邢广程: 《中国与中亚》，中国社会科学文献出版社,1998 年版.

O‘zbekistonlik Xitoyshunos olimlar Idirov U.Y, Xodjayev A.B, Kim Valeriya Semyonovich, Karimova N.E, Bekmuratov I.N, Hashimova S.A, Melibayeva G.A, Sharipov M.Sh, Safoyev S.S, Gaziyev F.Sh, Xo‘jayev M, Shozamanov Sh.I, Sadibekova B.J, Bahtiyor Rashidovlar [1] ham o‘zlarining ilmiy asarlarida Xitoyning jahon siyosatidagi o‘rni va uning olib borayotgan tashqi siyosatini chuqur o‘rganib, yoritib berganlar. Xususan, Idirov U.Y Xitoy tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosatning yetakchi tendensiyalari, Karimova N.E Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakalari o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari va unda Buyuk ipak yo‘lining o‘rni, Melibayeva G.A Xitoyning turli davlatlar bilan olib borayotgan tashqi iqtisodiy siyosati, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalari, Bekmuratov I.N Xitoyning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi faoliyati va unda amalga oshirayotgan loyhalar, Xodjayev A.B ilmiy asarlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi Xitoy ta’sirining tarixiy asoslari va hozirgi holati, ularning siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotiga bo‘lgan ta’siri chuqur tadqiq etilgan.

---

[1] Идиров У.Ю. Замонавий Хитой ташқи сиёсатидаги етакчи тенденциялар. Мақола. Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат. мавзусидаги XII илмий-амалий конференсия материаллари тўплами: Тошкент, 28 ноябр 2015 йил.-Т.:ТДШИ,2015-245-246-б.; Ходжаев А.Б.; Китайский фактор в Центральной Азии АН РУз, Ин-т востоковедения им. – Т.: Фн, 2004/ Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. // Ўзбекистон миллий энсиклопедияси давлат илмий нашриёти.Т.: 2007/ Ким Валерий Семенович**.** Политическая идеология Китая XX века: генезис, эволюция и современность: РУз ТашГИВ. - Т., 1995. - 322с.; Каримова Н.Э. Региональные аспекты современных международных отношений. Т.:2013. Historic Central Asian Cities on the Silk Road: with Reference to Cheng Chen’s Journey to Central Asia // Waseda Journal of Islamic Sciences. Tokyo: Institute of Islamic Sciences, Waseda University. – Vol.5. 2009.; Хашимова С.А. Revival of the Great Silk Road: New horizons for cooperation between China and Central Asian countries. Мақола. Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат мавзусидаги XII илмий-амалий конференсия материаллари тўплами: Тошкент., 28 ноябр 2015 йил. Ёвқочев Ш.А. Сиёсат ва дин, ўқув қўлланма. –Т.:2013.-57-б.; Шазаманов Ш.И. Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси. Монография. –Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти. 2014.-167 б.; Melibayeva G.A, Gaziyev F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi, o‘quv qo‘llanma. –T. 2011.; Бекмуратов И.Н . Шанхай хамкорлик ташкилотининг фаолияти ва институциялашиш жараёни, 23.00.02//ЎзР Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият ќурилиши академияси. - Ўтв. 28.11.2006; К.28.11.06-20058/562/08. - Тошкент, 2006. - 147 б.. - Библиогр.: б.134-147.; Маннонова О.С. Политологическое изучение проблем регионально развития безопастности и интеграции в Центральной Азии в зарубежной русскоязычной литературе//Диссертация на соиск.науч.степени канд.полит.наук. Ташкент., 2001.; Сабитов Ш.А. Внешняя политика Китая в годы реформ (1978-1998г.) и перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан [Рукопись] : дис. ... канд. полит. наук : 23.00.02 Шукур Абдурахманович Сабитов МИД РУз Ун-т Мировой Экономики и Дипломатии. - Т., 2002. - 167с.; Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. // ЎзР Ташќи ишлар вазирлиги, Жаҳон иќтисодиёти ва дипломатия ун-ти. - Тошкент, 2007.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Globallashuv sharoitida XXRning jahon siyosatida tutgan o‘ziga xos o‘rni va mavqeyidan kelib chiqib, ushbu mamlakat tashqi siyosat tendensiyalari va uning davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish va ular bilan aloqalarni yaxshi rivojlantirish tajribasini o‘rganish va tahlil qilish asosida mamalakatimizning dunyo miqyosidagi o‘rnini oshishini ta'minlaydigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ishimizning asosiy maqsadidir. Ta’kidlab o‘tilgan maqsadga erishish uchun ushbu bitiruv malakaviy ishida quydagi asosiy vazifalar qo‘yilgan va bajarilgan:

- Xalqaro globallashuv va uning mamlakatlar mustaqil tashqi siyosatiga ta’sirini nazariy jihatdan asoslash.
- Hozirgi zamonaviy XXR tashqi siyosati rivojlanishining konseptual asoslarini o‘rganib chiqish.
- Xitoyning Jahon siyosati amaliyotida tutgan o‘rnini tahlil qilish.
- Xitoyning Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari bilan olib borilayotgan iqtisodiy–siyosiy aloqalari, “Buyuk ipak yo’li iqtisodiy belbog’i” loyhasini ko’rib chiqish.
- Xalqaro munosabatlarda manfaatlar uyg‘unligi va tengligini, dunyo tinchligini taminlashda Xitoyning o‘rnini o‘rganish.
- Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida XXRning foaliyatini va ularda tutgan o‘rnini ko‘rib chiqish.
- Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy hamkorligini, xususan, SHanxay Hamkorligi tashkiloti doirasidagi aloqalarni o‘rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti.** Xalqaro Globallashuvning chuqurlashuvi sharoitida XXR tashqi siyosiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari va yetakchilik tendensiyalari.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** XXR tashqi siyosatini shakillanturuvchi “Buyuk Ipak yo‘li”, “Uyg‘unlashgan dunyo” kabi konsepsiyalar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida imzolangan shartnomalar, ShHT.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasi va metodikasi.** Prezident I.A.Karimovning xalqaro munosabatlarni mustahkamlashga bag‘ishlangan asarlari,

tashqi siyosat tamoyillari, mintaqaviy tashkilot ShHT sammitidagi nutqlarida bayon etilgan fikrlar, XXR Raislari tomonidan ilgari surilgan fikrlar va Xitoyning tashqi siyosat konsepsiyasi Bitiruv malakaviy ishining nazariy metadologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi sharoitida XXRning tashqi siyosatdagi yetakchi tendensiyalar o‘rganish va tadqiq qilishda mantiqiy, tarixiy, qiyosiy–tipologik, sintez va kontent tahlili kabi metodlardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Mazkur bitiruv malakaviy ishda ko‘rib chiqilgan hozirgi XXRning jahon siyosatidagi o‘rni va xalqaro munosabatlarda amalga oshirayotgan tashqi siyosatiga doir voqealar va faktlar, xulosalar va boshqa bir qator masalalarga oid materiallar «Xitoyshunoslik», «Xitoy ichki va tashqi siyosati», «Siyosatshunoslik», «Jahon siyosati» va boshqa gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy–amaliy qo‘llanma sifatida qo‘llanilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

# 1-bob. Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi sharoitida XXR tashqi siyosatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xususiyati va uni o‘rganishning metodologik asoslari.

## 1.1. Xalqaro globallashuv va uning mamlakatlar mustaqil tashqi siyosatiga ta’siri.

XXI asrga kelib globallashuv jarayoni dunyo taraqqiyotidagi istiqboldagi rivojini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bugungi kunda har qanday davlat o‘zining tashqi va ichki siyosatini belgilashda bevosita ushbu jarayonning namoyon bo‘lishi va u keltirib chiqayotgan oqibatlarni inobatga olishga majbur bo‘lmoqda. 1780 yilda faylasuf Jeremi Bentxam tomonidan birinchi bor muomalaga kiritilgan «xalqaro» so‘zi o‘sha davrda dunyo siyosatida jiddiy o‘zgarish yuz berganligidan dalolat berar edi [1]. Bugungi kunda “globalizatsiya”ni ham shunday tub o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan tushuncha sifatida qarash mumkin.

Prezidentimiz Islom Karimov globallashuvga quydagicha ta’rif bergan edi: “ Bugun biz tez surat bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha tariflab, har xil nomlar bila atamoqda. Kimdir uni yuksak texnalogiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yan birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang barang hayotning qaysidir alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taasurot uyg‘otmoqda”[2].

Globalizatsiyani, aslida, oxirgi yigirma–o‘ttiz yilda dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifoda etuvchi tushuncha deb qarash mumkin. Globalizatsiya shunday

---

1 Scholte J.A., Globalization: A Critical Introduction.//Palgrave. New York 2000. –P.14-43.
2 Karimov I.A.. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2008. –B.110.

bir jarayonki, uning natijasida kishilar va xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar masofa va chegara bilmasdan rivojlanadi va jahon yagona bir ijtimoiy makonga aylanib boradi. Bu pallada ijtimoiy munosabatlar, ya'ni insonlarning oʻzaro munosabatga kirishlarining turli shakllari, «yagona dunyo» kontekstida amalga oshadi. Masofa va eng muhimi, davlatlar oʻrtasidagi chegaralar borgan sari oʻz ahamiyatini yoʻqotib boradi.

"Globallashuv" tushunchasi eng avvalo shuni anglatadiki, bunda har doim koʻplab insonlar dunyo boʻylab shaxsiy, kasbiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir–biriga bogʻlangan boʻladi[1]. Boshqacha aytganda, globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlar aktorlari oʻrtasidagi aloqalar keng miqiyosda bir biriga chambarchas bogʻlanib ketmoqda. Negaki xalqaro munosabatlar tizimining asosiy tendensiyasi uning baynalminallashuvdir. Baynalminallashtirishning vositalari, uning harakatlartiruvchi kuchlari oʻzgarmoqda. Hozirgi paytda u asosan iqtisodiy va ilmiy texnik omillar ta'siri ostida rivojlanmoqda[2].

Globallashuv davrida yuzaga kelgan muammolar oʻz milliy chegaralaridan chetga chiqib jahon miqiyosidagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi muammolarga aylanib bormoqda.

Hozirgi davrda jahon siyosiy maydonida globallashuv jarayoni bilan birgalikda turli mintaqalar doirasida integratsiyalashuv tendensiyasi ketmoqda. Mintaqaviy integratsiya ikki xususiyatga ega: birinchidan, u globalizatsiyaning tayyorlov bosqichi sifatida namoyon boʻlsa, ikkinchidan, globalizatsiyaning muqobili sifatida ham qaralmoqd[3]. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mintaqaviy integratsiyaning kuchayishiga olib kelayotgan quyidagi omillarni ajratib koʻrsatish mumkin:

Birinchidan, globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarning turli mintaqalarga tahdid solish ehtimoli, ya'ni globallashuv samarasining notekis taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va baynalminal hamda umumjahon miqiyosda

---

[1]Wildfried Bredow. Neue Herausforderungen // Information zur politischen Bildung. 2006. - №291. –P.5
[2]Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия. 2007. –Б.26.
[3] Дробот Г.А. Современный мировой порядок и его перспективы в трудах Российских учёных// http://www.worldspol.socio.msu.ru/programmi/sovremennyj_mirovoj_porqdok_i_ego_perspektivy.doc

majoralar xavfini tug'dirdi[1]. Bunday muammolarga qarshi yakka holda kurashish har qanday davlat uchun samarasiz hamda imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada ma'lum mintaqa doirasida birlashish talab etiladi. Masalan: YeXHT, KHShT, ShHT aksilterror tuzilmasi, G'arbiy Yevropa ittifoqi, NATO, ANZYuS va boshqalar.

Ikkinchidan, mintaqa doirasida iqtisodiy infratuzilmani tiklash va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy–ijtimoiy farovonlikni vujudga keltirish va bu boradagi muammolarni hal etish uchun birlashish. Bugungi kunda jahonning deyarli hamma mintaqalarida integratsiya jarayonlari yuz berib, qaysidir mintaqada u tez suratlar bilan, boshqasida sust suratlarda rivojlanishi bilan farqlanmoqda. Turli mintaqaviy tashkilotlarning shakllanishiga turtki bo'lmoqda: Shimoliy Amerikada NAFTA, Janubiy Amerikada MERKOSUR, Yevropada YeI, Afrikada Afrika Ittifoqi, Janubiy Osiyoda SAARK, Janubiy Sharqiy Osiyoda ASEAN, Markaziy Osiyoda MDH, ShHT, Yevrosiyo hamkorlik tashkiloti va boshqalar.

Shuning uchun ham 90–yillar o'rtalaridan integratsiya tendensiyasi xalqaro taraqqiyotning megatendensiyalaridan biri bo'lib qoldi[2]. Bu kelgusi dunyo tartibotining shakllanishida muhim omillardan biriga aylanishi mumkin. Hozirda yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqaro munosabatlar tizimi o'tish davrida. Bu davrda ko'p qutblilikning boshqa o'lchovi sifatida regionalizmni hisoblash mumkin[3]. Turli mintaqalarda mintaqaviy yetakchi davlatlarning yuzaga kelishi va o'z ta'siri ostida qolgan davlatlarni birlashtirishi, ko'p qutbli dunyo tizimining yuzaga kelishiga imkon yaratishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, Yevropa Ittifoqining asosiy kuchi uning iqtisodiy ravnaqi ekanligi va bu boradagi yutuqlari, aniqrog'i, "iqtisodiy taraqqiyotning Yevropa modeli" yangi jahon tartiboti shakllanishiga, uning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etayotganligini alohida

---

[1]Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия, 2007. –Б.33.
[2]Богатурова А.Д.. Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов. 2-том. М.: Культурная революция. 2006. – С.551.
[3]Торкунова А.В. Современный международные отношения.// Учебник. - М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН). 1999. – С.26–28.

ta'kidlashmoqda[1]. Bu esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining muhim xususiyati hisoblanadi.

"Sovuq urush" barham topganidan so'ng jahon hamjamiyatida yuz berayotgan muhim o'zgarishlardan biri jamiyat va davlatlar boshqaruvini demokratlashtirish jarayonidir. 1990 yillar boshida geosiyosiy nuqtai nazardan jahonga qaralsa, dunyo xaritasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Varshava shartnomasi parchalandi, Sovet iqtisodiy o'zaro yordamining tugashi Markaziy va Sharqiy Yevropani Moskvaga bog'liqligidan xalos etdi. Ular har biri mustaqil Yevropa va xalqaro munosabatlar aktoriga aylanishdi. Bu davlatlar o'z taraqqiyotining zaruriy asosi sifatida demokratik rivojlanish yo'liga o'tishdi. Shuning uchun ham sobiq sotsialistik davlatlarning katta guruhi demokratik tizimga o'tishi xalqaro munosabatlarning muhim jihati hisoblanadi[2]. Shu bilan birga ba'zi bir taqiqotchilar globallashuv, xususan, demokratiyaning globallashuvi va fuqarolik jamiyatining kengayishi o'ta qiyin jarayon ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, I.Ramone fikricha, global dunyo tartiboti kelajakda davlatlarni birlashtirmaydi, aksincha u G'arbiy Yevropa va AQShning jahon siyosatidagi roli va ahamiyatini oshirishga, davlatlar o'rtasida o'zaro farqlarni oshishiga xizmat qiladi[3]. So'ngi yillarda demokratik jarayonlarning ma'lum davlatlarning manfaat– lariga bo'ysundirishga urinish ham kuzatilmoqda, bu bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Agar ilgari qudratli davlatlar geosiyosiy masalalarni yechish uchun harbiy kuchlarga, to'ntarishlar uyushtirishga, qonli janglarga zo'r berishgan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, globallashuv taqdim etayotgan yangi texnologiyalar bilan qurollangan va yangi vositalarni ishga solgan holda legitim hokimiyatni almashtira oladilar. Ushbu yangi vositalar "rangli inqiloblar" deb nomlanadi[4].

Xususan, "rangli inqiloblar" seriyasini amalga oshirishda yetakchi bo'lgan AQShda jahonda "demokratiyani yoyish" davlat rahbarlari oldida turgan asosiy

---

[1]Goodchoc L. (UR) The United States and Europa in Global Arena. // London.: 1999. –P.184.
[2]Богатурова А.Д. Системная история международных отношений.//События 1945-2003 годов, том 2. -М.: Культурная революция. 2006. - С. 513.
[3]Williamson K, Jeffery G.. "Globalization and Inequality, Past and Present." the Political Economy of Inequality. Eds. Frank Ackerman and et al.//Washington: Island Press. 2000. –P.303.
[4]Саидолимов С., Жўраев С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. - Т.: Академия, 2007. –Б.118.

vazifalardan biriga aylangan deyish mumkin. Ma'lumki, bu holatni bir qator davlat strategiyalarida, prezident va mansabdor shaxslar nutqida hamda ilmiy doiralar asarlarida kuzatish mumkin.

AQShning sobiq prezidenti B.Klinton tasdiqlagan 1997 yilgi "Yangi yuz yillik uchun Milliy xavfsizlik strategiyasi"da quyidagi fikrga urg'u berilgan:

"Qo'shma Shtatlarning hayotiy muhim manfaatlari Rossiya, Ukraina va boshqa yangi mustaqil davlatlarning barqaror zamonaviy demokratiyani yaratish, tinch va gullab–yashnayotgan, integratsiyalashgan jahon hamjamiyatini tashkil etish yo'lidagi evolyutsiyasidan iborat"[1].

Shuningdek, "demokratiyani yoyish" niqobi ostida muayyan davlat ichki ishlariga aralashish, ularga bosim o'tkazish AQSh ilmiy doiralari tomonidan tabiiy fenomen sifatida isbotlashga urinishni kuzatish mumkin. Masalan, AQSh Xavfsizlik masalalari bo'yicha sobiq davlat maslahatchisi G.Kissenjerning yaqinda chop etilgan "Diplomatiya" asarida: "AQSh qadriyat va tartibotlari dunyoning barcha mamlakatlarida amalga oshirilsagina jahon siyosatida barqarorlik, barkamolikka asos solinishi mumkin", degan oshkora missionistik g'oya ilgari surilgan[2]. A.Straus o'zining "Unipolyarizm konsepsiyasi"da XXI asrda bir qutbli jahon tartiboti qaror topishi, u Yer kurrasi aholisi va moddiy salohiyatining 70% ga yaqinini qamrab olgan ulkan "yagona makon" va nihoyat uning homiy va rahnamosi Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lishi zarurligini isbotlashga harakat qilgan[3].

"Mintaqaviy siyosat jamg'armasi" ekspertlari ta'kidlaganidek, milliy manfaatlarni globallashtirish globallashuvning ilk va asosiy kamchiligi hisoblanadi. Chunki bu hatti xarakatlar siyosiy gegomonlikka yo'l ochishi mumkin[4]. Mazkur omil bugungi kunda ham ikki lager raqobati tugagan davrda, ham qurollanish jarayonining o'sishi va davlatlar o'rtasidagi muvozanatga kuch omili orqali erishish kuzatilmoqda.

---

[1]National Security Council - http://clinton3.nara.gov/WH/EOP/NSC/html/nschome.html
[2] Henry Kissinger. Diplomacy.// Published April 4th 1995 by Simon & Schuster. – P.268.
[3]Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик (Глобал контекст) –Т.: Академия, 2007. –B.100.
[4]Саидолимов С, Жўраев С, Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. –Т.: Академия, 2007. –Б.52.

Birinchidan, ikki qutbli dunyoning parchalanishi bilan bir qator mayda, biroq ko‘p sonli qurolli to‘qnashuvlar eng avvalo, sobiq ko‘p millatli davlatlar, hududlarda paydo bo‘lishiga olib keldi.

Ikkinchidan, rus olimlari yondashuvicha, AQSh va NATO mamlakatlari demokratiyani qo‘llab–quvvatlash va inson huquqlarini himoya qilish bahonasida Sobiq Sovet ittifoqiga qarshi harakatlarini to‘xtatmasdan mintaqaviy va milliy nizolarda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun keng ko‘lamda foydalanishmoqda[1].

Milliy davlatlar hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida ham bosh aktorlar hisoblanadi. Biroq shu bilan bir qatorda yangi aktorlar vujudga kelmoqda va ularning roli tobora oshib bormoqda. Ular qatoriga xalqaro tashkilotlar, TMK, turli harakatlar va individlarni (masalan, terrorist Usama bin Laden) ham kiritish mumkin.

Xalqaro tashkilotlar nisbatan uzoq bo‘lmagan yo‘lni bosib o‘tar ekan, XXI asrga jahon geosiyosiy jarayonlarining to‘laqonli ishtirokchilari bo‘lib kirdi[2]. Xalqaro tashkilotlar ikki turga bo‘linadi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlar. Ikkinchi turkumdagi tashkilotlar jadal o‘sib bormoqda, 1968 yil ular soni 1899ga teng bo‘lsa, 1998 yil ular soni 5766 tani tashkil etgan[3].

Aytish mumkinki, globalizatsiya jahon siyosatidagi an’anaviy xalqaro munosabatlarni bartaraf etib, an’anaviy (davlatlar) va yangi (TMK, guruhlar, turli harakatlar, xalqaro tashkilotlar, individlar) sub’ektlar o‘rtasida o‘zaro faoliyat qobig‘i doirasida aloqalar qilish imkoniyatini vujudga keltirdi[4]. Globalizatsiya jarayoni xalqaro siyosiy jarayonlarga jiddiy ta'sir o‘tkazmoqda. Bu ta'sir va uning natijasida yuz berayotgan o‘zgarishlarning darajasi va xarakterini turlicha baholash

---

[1] Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов, 2-том. Под.ред. д.п.н. Богатурова А.Д. - М.: Культурная революция. 2006. – С.515.

[2] Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. - Т.: Академия, 2007. –Б.46 –71.

[3] Торкунова А.В Современный международные отношения. Учебник. М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН), 1999. – С.123.

[4] Богатурова А.Д. Системная история международных отношений. События 1945-2003 годов. – Т.2. – М.: Культурная революция, 2006. – С.581.

va talqin etish mumkin. Bugungi kun xalqaro munosabatlari avvalgi davrdagilaridan keskin farqlanadi. Endilikda xalqaro munosabatlarning rivojlanashiga ta'sir etuvchi hududsiz, chegarasiz va masofasiz bo‘lgan omillar va vositalar yuzaga kelmoqda. Globalizatsiya hokimiyatni boshqarish tartibi va shakllariga ham ta'sir etmoqda. Davlat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi yetakchi kuch bo‘lib qolayotgan bo‘lsada, globalizatsiya jarayoni davlat suvereniteti asoslarini tashkil etuvchi tamoyillarning ahamiyatini «yo‘qqa chiqarmoqda». Shuningdek, xalqaro munosabatlarda hokimiyatga ta'sir etishning yangi ko‘rinishlari – xalqaro ijtimoiy harakatlar (misol uchun Grinpis yoki Amnisti interneyshinl tashkilotlari), xalqaro qonun normalari yuzaga kelib, bular ham o‘z navbatida davlat suverenitetini susayishiga ta'sir etmoqda[1]. Endilikda xalqaro munosabatlar talabalari dunyo siyosatini to‘liq, kompleks tarzda o‘rganishlari taqazo etadi. Zotan, bugungi kunda «davlat» yoki «davlat tizimi» xalqaro munosabatlarning asosini tashkil etadi, deb qarashning o‘zi kifoya etmaydi.

Hozirgi vaqtda qurol–yarog‘ bilan ochiqchasiga tahdid qilish, boshqa davlatlar hududiga bosqinchilik uyushtirish to‘xtatilgan bo‘lsada, lekin turli xil yo‘llar va usullar bilan g‘oyaviy, mafkuraviy tahdid kundan kunga avj olib bormoqda. XXI asr boshqa davrlardan farqli ravishda, globallashuv jarayoning keng tarqalishi bilan ko‘zga tashlanmoqda. Shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan XXI asr dunyo va jamiyatimizda o‘zgacha manzara kasb etmoqda. Bugungi kunda butun dunyo ko‘z o‘ngimizda shiddat bilan o‘zgarib, qator yangi sifatlarga ega bo‘lib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu davrga kelib dunyo mamlakatlarida o‘zlarining g‘oyalarini hech qanday urushlarsiz, ya’ni, turli vositalar orqali targ‘ib qilib, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Bularning asosida muayyan millat, jamiyat, davlatlarning barqarorligi va tinchligi qarshi qaratilgan, jamiyat va fuqarolarning xavfsizligiga tahdid soluvchi, konstitutsion tizimni zaiflashtirishga va buzishga qaratilgan mafkuraviy tajovuzlar keskinlashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

---

[1] Okere B.O. Evolution of the Concept of Sovereignty Lecture . // Note Faculty of Law. UNEC .2014. – P.8

Shuni ham aytish kerakki, butun dunyodagi barcha davlatlarda o‘zaro farqlanadigan, ko‘p hollarda bir biriga zid bo‘lgan manfaatlarga ega bo‘lgan turli xil siyosiy kuchlar, dinlar va diniy oqimlar, guruh va qatlamlar, turli xil asosiy maqsadi, turli mintaqalar va davlatlarning aholisi, ijtimoiy guruhlari turmush tarzi, ongiga ta’sir o‘tkazish, ularni bo‘ysundirishdan iborat. Bunday ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad esa boshqa mamlakatlardagi kishilarga siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va diniy qarashlarini singdirish orqali manfaatlarini ta’minlashdan iborat. Tinch yo‘l bilan bunday ta’sir o‘tkazish, ko‘zlangan maqsadga olib kelmasa, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashish, u yerdagi mavjud vaziyatlarni ataylab keskinlashtirish yoki kuch ishlatish orqali ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltirish uchun harakatlarni amalga oshirirlayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Bunday jirkanch ishlarga qo‘l urayotgan yovuz kuchalar o‘z etiqodi, milliy xissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy–iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shu bilan birga, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ayyorona foydalanib kelmoqdalar. Bugungi kunga kelib ular aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning ongini o‘zlarining maqsadi bo‘gan buzg‘unchi g‘oyalar bilan zaharlash barcha barchaga ma’lum. Bunday holatlarning dolzarb va muhim jihatlari shundan iboratki, hozirgi vaqtdagi globallashuv jarayonlari insoniyat uchun keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlar mohiyatini tezda tushunib yetish imkoniyatiga ega emasmiz. bugungi kunda globallashuv o‘zining ta’sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi, keng qamrovi bilan rivojlanmagan yoki endi rivojlanish yo‘lida borayotgan davlatlarning milliy ma’naviyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, ularning yemirilishiga va kelajakda ommaviy madaniyat ta’sirida ularning barbod bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Prezidentimiz I.A Karimov takidlaganlaridek “Biz hayot hech qachon bir joyda to‘htab turmasligini, albatta, yaxshi anglaymiz, agar biz XXI asrda, tobora, internet va intellektual hal qiluvchi rol o‘ynayotgan bir davrda yashayotganimizni hisobga oladigan bo‘lsak, hayotimiz naqadar shiddatli suratlar bilan o‘zgarib  borayotganini, ayniqsa, chuqurroq his qilamiz.

Anashunday sharoitda erishgan natijalarimizga mahliyo bo‘lmasdan, havolanish kayfiyatiga berilmasdan, shu paytga qadar bosib o‘tgan yo‘limiz–bu oldimizda turgan murakkab va og‘ir yo‘lining faqat bir qismi ekanini o‘zimizda aniq tasavvur etishimiz kerak. Bugungi kunda bizni o‘rab turgan dunyo qanchalik tez o‘zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofimizda turli mojaro va qon to‘kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib, moliyaviy–iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. Albatta, bularning barchasi har birimizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan baholashni talab qiladi”[1].

Xulosa qilib aytganda,, milliy taraqqiyot uchun globallashuv jarayoni siyosiy jihatlarining xavfli tomoni juda katta. Yosh, mustaqil davlatlarga zamonaviy texnika, fan va texnologiya yutuqlari bilan birga, tabiiyki, rivojlangan davlatlarning ma’naviy–axloqiy va siyosiy qadriyatlari ham kirib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, har birimizdan hozirgi paytda dunyoda ro‘y berayotgan voqe–hodisalar mazmun–mohiyati va maqsadini anglay bilishni, teran fikr yuritishni taqazo etadi. Shuningdek, hozirda davlatlar o‘rtasidagi aloqalar, xalqaro geosiyosiy muvozanatning o‘zgaruvchan xarakteriga ega ekanligi, yangi jahon tartibotining to‘liq shakllanmaganligi, bir vaqtda ikki muqobil globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayoning avj olishi bir qator muammolar va turli qurolli nizolarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, davlatlararo harbiy mustahkamlanish yuz berayotgan davrda hozirgi zamon jahon siyosatining asosiy vazifasi yuzaga kelgan davlatlar o‘rtasidagi nizolar, qurolli to‘qnashuvlar va boshqa global muammolarni hal etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib qoldi. Bu yo‘lda an’anaviy aktorlar o‘rtasidagi munosabatlarning qanday boshqarilishi, davlatlar va noan’anaviy sub’ektlar aloqalarini kuchaytirishga urinishlar kelgusi xalqaro munosabatlar tizimi va globallashuv jarayonining qay shaklda rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

---

[1] Karimov I.A.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015. –B.14–15.

## 1.2 Hozirgi zamonaviy XXR tashqi siyosati rivojlanishining konseptual asoslari

Har bir davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosati, ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyillarga bo‘lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi. Xususan, O‘zbekiston ham o‘zining tashqi siyosiy faoliyatida o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega. Konstitutsiyamizning 17 moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin[1]”. deb belgilab qo‘yilgan.

Tashqi siyosat davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish, xalqaro tashkilotlar qoshida vakolatxonalar ochish yoki unga a’zo bo‘lish, turli darajalarda o‘zaro aloqalar o‘rnatish shakllarida amalga oshiriladi. Tashqi siyosatda o‘zaro axborot almashish, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar va kelishuvlar imzolash, o‘zaro munosabatlar rivojiga xayri–xohlik ko‘rsatishning boshqa vositalaridan foydalanish ham mumkin. Tashqi siyosat har bir zamonaviy davlatning bosh atributi, fundamental jihati, ajralmas qismi va vazifasi hisoblanadi. Chunki tashqi siyosat orqali davlat geografik makon jihat kasb qilish bilan birga, o‘zini noyob tarixiy, sotsiomadaniy, sivilizatsion va nihoyat, geosiyosiy yaxlitlik sifatida ham namoyon etadi[2].

Hozirgi dunyo taraqqiyoti shunday kechmoqdaki, bugun har qanday davlat xalqaro siyosatda o‘z ustuvorligini faqat oshkora ma’rifiy tashqi siyosat orqali

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston. 2014. –B.8.
[2] Odilqoriyev X.T, Razzoqov D.X . Siyosatshunoslik. o‘quv uslubiy qo‘llanma.qayta ishlangan uchinchi nashr. –T.: 2012. –B.237.

saqlab turishi va shunga yarasha legitimlikka erishishi mumkin. Xalqaro siyosat maydonida siyosiy jarayon tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishning birdan-bir yo'li ma'rifiylik, ya'ni kuch ishlatishni mutlaq inkor etgan tashqi siyosiy faoliyat bo'lishi mumkin. Tashqi siyosatni mafkuradan xoli etish xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolati bo'lib, uni muayyan mafkuraviy aqidalarga emas, balki xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurmoq lozim. XX asrning oxirgi choragida jahonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar davlatlar tashqi siyosati, uning mazmun va xarakterida ham o'zgarishlar yasadi. Ma'rifiy xalqaro siyosatni ta'minlashni ko'zlagan yangi jahon tartibotini shakllantirish uchun keng ko'lamli harakat boshlandi. Davlatlar tashqi siyosatidaikki ijtimoiy–siyosiy tizim yoki "kapitalizm bilan sotsializm" lageri, "o'zaro kuch ishlatish", iqtisodiy, siyosiy, harbiy hokimlikka erishish, tazyiq ko'rsatish, mamlakat ichidagi nizolarni qo'llab–quvvatlash emas, balki davlatning suverenitetini tan olish ularning ichki ishlariga aralashmaslik; tinch – totuv yashash siyosatiga og'ishmay amal qilish; xalqaro kelishmovchiliklarni siyosiy yo'l bilan hal etish; davlatlar chegarasining daxlsizligi va hududning bir butunligini tan olish; inson huquqlarini hurmat qilish; millatlar va elatlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash; xalqaro majburiyatlarga vijdonan amal qilish asosida tashqi siyosat olib borish tamoyiliga o'tilmoqda[1].

Bu tamoyillar ayrim mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'ylab topilgan bo'lmay, uzoq yillar davomida xalqaro munosabatlar sohasida obyektiv ravishda shakllangan. Bularga amal qilmaslik alohida olingan mamlakatlarni xalqaro hamjamiyatdan butunlay ajralib qolishiga olib keladi. Buning to'g'riligini yana bir bor Respublikamiz Prezidenti I. Karimov o'zining "O'zbekiston siyosiy–ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" degan ma'ruzasida "Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oyaga amal qilish lozim. Bu g'oyaning ma'nosi shuki, birgalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtai nazar va fikrlarga

---

[1]Отамуродов С. Эргашев И, Акромов Ш, Қодиров А. Политология. ўқув қўлланма. – Т., 1999. –Б.191.

bardoshli bo‘lish tamoyillarini o‘zida aks ettirgan qonunlar ustuvorlik kasb etishi darkor”, deb ta‘kidlaydi[1].

Hozirgi globallashuv jarayonida va Jahon miqyosidagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi sharoitida XXR tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosatda yuqorida sanab o‘tilgan tamoillarning aks etishi Xitoy diplomatiyasining o‘ziga xosligini bildiradi.

XXR 1949 yil oktyabrda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Shu davrdan boshlab o‘zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshira boshladi. O‘tgan 30 yil davomidagi chuqur islohotlar va tashqi dunyoga ochiqlik siyosati XXRda ulkan o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Xitoy iqtisodiyotidagi tez suratdagi o‘sish va Mamlakatning dunyo hamjamiyati bilan qisqa muddat davomida aloqalarining rivojlanib ketishi Xitoy tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatida amalga oshirilgan chora–tadbirlar qay darajada to‘g‘ri tanlanganligi amaliyotda o‘z isbotini topdi[2]. Xitoyda ichki vaziyatning o‘zgarishi va xalqaro maydondagi tezkor taraqqiyot davlat tashqi siyosati va diplomatiyasini ham ushbu jarayonlarga moslashuviga olib keldi. Bu hodisa turli xil konsepsiyalar va tashqi siyosat olib borishda o‘ziga xos usullardan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishni talab qildi va Xitoy diplomatiyasining rivojlanishini taminladi. Ushbu konsepsiyalar sirasiga “Xitoyning Yangi Xavfsizlik konsepsiyasi”, “Yangicha Taraqqiyot usuli”, “Yangi sivilizatsiya nazariyasi va Uyg‘unlashgan dunyo konsepsiyasi”larni kiritish mumkin.

Shu kabi konsepsiyalar Xitoy “yangicha diplomatiyasi”ning asosini tashkil etadi[3].

---

[1]Karimov I. A.Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.3. T.: O‘zbekiston. 1996 yil. –B.49.

[2]Xitoy YIM 2009 yilga kelib 4.9 trillion AQSdollarni tashkil etdi. Jon boshiga to‘g’ri keladigan daromad 3600 AQSh dollariga yetdi. 2007 yilda Xitoy Germaniyani ortda qoldirdi va iqtisodiy salohiyati jihatidan uchinchi o‘ringa chiqdi. Xitoy shuningdek, dunyodagi ikkinchi eng katta eksportyor davlat hisoblanadi. Qarang “Economist” jurnali, 2009 yil 14 yanvar soni.

[3]Xitoyning “Yangi diplomatiyasi” va tashqi siyosatiga doir ko‘plab ilmiy maqolalar chop etilgan: Qarang. Qing Yaqing “International System and China’s New Diplomacy”, Bejing: World knowledge Press, 2009. Jianwei Wang. China's new diplomacy goes to Tokyo‘, Pacific Forum CSIS, May 1, 2007. David Shambaugh, ‘China’s New Diplomacy in Asia’, Foreign Service Journal, May 2005; Zhu Liqun, ‘China’s New Diplomacy and Its Domestic Dynamics’, http://www.allacademic.com/ Yu Zhengliang, ‘Another talk on China’s New Diplomacy’, Studies on Mao Zedong and Deng Xiaoping Theories[Mao Zedong Deng Xiaoping Lilun Yanjiu], No. 6, 2005; Evan S. Medeiros and M. Taylor Fravel, ‘China’s New Diplomacy’, Foreign Affairs, November/December 2003.

Xitoy tashki siyosatida turli nazariya va konsepsiyalar o‘tgan asrning XX asrning o‘rtalaridan  boshlab vujudga keldi. O‘tgan asrning o‘talarida XXR tashqi siyosat konsepsiyasida “ikki qutbli dunyo” nazariyasi mavjud edi. Bunga ko‘ra Sobiq Sovet Ittifoqi boshchiligidagi kommunistik davlatlar va imperialistik kayfiyatdagi AQSH va uning ittifoqchilari. Sobiq Sovet Ittifoqi va XXR boshchiligidagi sotsialistik lager va ular o‘rtasida oraliq makonni egallagan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining boshqa davlatlari “uchinchi dunyo”ni tashkil etdi. 1960 yillarda “ikki qutbli dunyo” nazariyasi  “uch qutbli dunyo” nazariyasiga almashtirildi:

- AQSH boshchiligidagi kapitalizmga asoslangan dunyo;
- Sobiq Sovet Ittifoqi boshchiligidagi sotsialistik boshqaruvga asoslangan dunyo;
- Endilikda siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar[1].

1980 yillarda “ uchinchi dunyo “ nazariyasi o‘rnini “Sharq va G‘arb”, “Shimol va Janub” nazariyalari egalladi. Ushbu nazariya Chjao Szyannnning 1983 yil iyunda o‘tkazilgan  Butunxitoy Xalq vakillari kengashi  kongressida e'lon qilindi[2].

1980 yillarda Xitoyda xalqaro munosabatlar va jahon siyosatini tadqiq qiluvchi bir qator ilmiy–tadqiqot institutlari va markazlar tashkil etildi. 1982 yil XXR Davlat Kengashi huzurida xalqaro muommolarni o‘rganish markazi tashkil etildi[3].

1984–1986 yillarda jahon taraqqiyoti asosiy muommolariga nisbatan Xitoycha yondashuvning konseptual asoslari o‘zgardi. Dunyoga ko‘p qutbli nuqtai nazardan yondashish ko‘zga tashlandi. 1988 yil mayda o‘sha vaqtdagi XXR tashqi ishlar vaziri Syan Sichenning nutqida ko‘p qutbli dunyo to‘g‘risidagi fikrlar o‘z aksini topdi. Xitoy tashqi siyosatidagi yana bir nazariya “yaxlit davlat qudrati”

---

[1] Qin Yaqing, ‘五政府文化与国际暴利一大国的强行崛起与和平发展，中国社会科学号. 5, 年 2004. 55 页.

[2] Hao Ziyang. Prisoner of the State: The Secret Journal of Premier Zhao Ziyang. Trans & Ed. Bao Pu, Renee Chiang, and Adi Ignatius.// New York. Simon and Schuster. 2009.  – P.83.

[3] Гудощников Л.М  Эволюция политических институтов Китая во второй половине XX в. -начале XX1 в.// Политические системы и политические культуры Востока. –М., 2007  –С.156.

nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan, zamonaviy sharoitda davlat qudrati va uning xalqaro maydonga ta'siri faqatgina harbiy salohiyat bilan belgilanmaydi, shu bilan birga iqtisodiy va ilmiy–texnik taraqqiyot darajasi ham juda muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Xitoy xalqaro munosabatlarda oʻz oʻrnini mustahkamlashga yordam beradigan nazariyalardan yana biri "tinch yuksalish" nazariyasidir. 2003 yil Boassdagi forumning yigʻilishida Xitoy jamoat arbobi Chjen Bitsyan Xitoyning "tinch yuksalish" gʻoyasini ilgari surdi. "Tinch yuksalish konsepsiyasi" uch tasdiqda oʻz ifodasini topgan.

Birinchidan, Xitoy strategiyasi Xitoyning tinch yuksalishi xitoycha sotsializm yoʻli bilan iqtisodiy globallashuv ishtiroki orqali amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlashdan iborat.

Ikkinchidan, oʻz kuchlariga tayanish bilan birga Xitoy tinch tashqi muhitga ehtiyoj sezadi.

Uchinchidan, agressiya va tashqi espansiya yoʻlini rad qiladi[2].

XXR hukumati xalqaro meyyor va mezonlarga amal qilgan holda tinch yashashning quyidagi besh tamoillari asosida jahonning turli mamlakatlari bilan doʻstona hamkorlikni rivojlanishining barcha say–xarakatlarini qoʻllab quvatlaydi. Buni XXR quyidagi yonalishlar boʻyicha amalga oshirmoqda: 1) Strategik maslahat va muzokaralar. 2) mintaqaviy xavfsizlik sohasida hamkorlik. 3) Noananaviy xavfsizlik sohasida hamkorlik. 4) BMTning tinchlik yoʻlida harbiy operatsiyalarda ishtirok etishi[3]. Xitoy tashqi siyosatiga keyingi yillarda ta'sirini oʻtkazgan voqyealardan biri mamlakat hayotida katta ahamiyatga ega Kommunistik partiyaning s'yezdining oʻtkazilishidir. 2007 yil 15–21 oktyabrda Pekinda XXR Kommunistik partiyasining 17–s'yezdi boʻlib oʻtdi. Unda XXR KP raisi Xu Szintao nutq soʻzladi. Syezdda ta'kidlanishicha, milliy xavfsizlikka asosiy chaqiriq jahon hamjamiyatining Xitoydan mas'uliyatli xatti harakatlarni talab

[1] Апалин Г. В. Великодержавный курс Пекина – угроза миру и безопасности народов. – М.:Знание, 1978. –С. 48.

[2] Zheng Bijian. China's Peaceful Rise: A new path for china's peaceful rise and the future of asia Boao Forum for Asia. 2003. –P.16.

[3] Шазаманов Ш.И. Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти, 2014. –Б.5.

qilishidir. Syezdda ko'tarilgan yana bir masala taraqqiyotning ilmiy konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiyaning maqsadi 2020 yilga qadar Xitoyda "syaokan" o'rta tabaqa jamiyatini barpo etishdan iborat. Syezdda shuningdek tashqi siyosat masalalari ko'rib chiqildi. XXR raisi Xu Szintaoning BMT ning 60–yilligiga bag'ishlangan 2005 yil 30 sentyabrda bo'lib o'tgan sammitida chiqishidan kelib chiqib partiya ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi[1]. Sammitda Xu Szintao xalqaro hamjamiyatni uyg'unlashgan dunyoni barpo etishga chaqirdi. Shu kabi kabi qo'shma majlislar va konfrensiyalar davomida XXR Raislari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va shiorlar ostida Xitoy tashqi siyosati amalga oshiriladi. XXR tashqi siyosatining mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Xitoy erkin, mustaqil va tinch tashqi siyosat olib boradi. Uning vazifasi tinchlikni asrash va umumiy taraqqiyotga yordam ko'rsatishdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari XXR Konstitutsiyasida (1982 yil oktyabrda qabul qilingan) belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagicha:

– hududiy yaxlitlik va suverenitetga o'zaro hurmat;
– hujum qilmaslik;
– bir–birining ichki ishlariga aralashmaslik;
– tenglik va o'zaro manfaat;
– diplomatik munosabatlar rivojida tinch totuv yashash va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlik[2].

Xitoy tashqi siyosatda quydagilarga amal qiladi:

a) xalqaro munosabatlarning barcha yo'nalishlari bo'yicha Xitoy mustaqil va erkin o'zining siyosatini tanlaydi;
b) Xitoy harbiy kuch va gegemoniyaga qarshi chiqadi. Davlatlar bloklariga yoki yirik derjavalar bilan hech qanday strategik aloqalar o'rnatmaydi;
c) Xitoyning tashqi siyosat maqsadlari xalqaro dunyo holatini yaratish va butun dunyoda tinchlik mavjudligini taminlash[1].

---

[1]Wo-Lap Lam, Willy, Chinese Politics in the Hu Jintao Era: New Leaders. New Challenges Armonk. // New York: M.E. Sharpe, 2006 –P. 34–36.
[2]Конституция КНР Принята на 5-й сессия Всекитайского собрания народных представителей 5-го созыва 4 декабря 1982-г (с изм. 188б 1993б 1999б 2004 гг).

Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

– Umumiy rivojlanishga muvofiq bo‘lish, insoniyatning umumiy manfaatlarini himoya qilish, Xitoy xalqaro hamjamiyat bilan ko‘p qutbli dunyo tartibotiga ko‘maklashish, turli kuchlarning birgalikdagi uyg‘unlik mavjudligini himoya qilish va xalqaro hamjamiyat barqarorligini saqlash, umumiy ravnaq uchun yo‘naltirilgan iqtisodiy globallashuvni rag‘batlantirish.

– Odil va oqilona yangi siyosiy va iqtisodiy tartibotni shakllantirish, jahonning barcha mamlakatlari xalqaro siyosatda bir birini hurmat qilishi, o‘zgaga o‘z irodasini majburan singdirmasligi lozim, iqtisodiyotda o‘zaro rag‘batlantirish va umumiy taraqqiyot amalga oshirilishi kerak boy va qashshoq mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut tobora oshmasligi lozim; madaniy sohada bir birini hisobga olish, birgalikda ravnaq toppish va boshqa millatlar madaniyati hurmat qilish lozim; xavfsizlik sohasida bir biriga ishonish, tenglik va hamkorlik, nizolarni muloqot va hamkorlik orqali hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish yo‘li bilan tahdid qilmaslik lozim. Xitoy gegemoniya va kuch ishlatish siyosatining har qanday ko‘rinishiga qarshi chiqadi. Xitoy hech qachon gegemonizm va ekspansiya siyosatini olib bormaydi.

– Dunyoning rang–barangligini himoya qilish, xalqaro munosabatlarda demokratlashtirishni yoqlash va taraqqiyot modellari rang–barangligi uchun harakat qilish, madaniyatlar xilma xilligini o‘zaro hurmat qilish. Turli mamlakatlar o‘z ishini o‘zi hal qilishi kerak, tinchlik masalalari teng huquq asosida muhokama qilinishi kerak.

– Terrorizmning barcha ko‘rinishlariga qarshi chiqish va unga qarshi kurashish. Bu boradagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash lozim, terrorizmga zarba berish, butun kuch bilan terrorizm ildizini quritish.

– Rivojlangan davlatlar bilan aloqalarni yaxshilash va rivojlantirishni davom ettirish, turli mamlakatlar xalqlari tub manfaatlariga tirgak bo‘lish, tinch–totuv yashashning besh prinsipi asosida umumiy manfaatlar sohasini kengaytirish.

---

[1]Marc Lanteigne. Chinese Foreign Policy. // An Introduction. London and New York: Routledge, 2009. –P.153.

– Yaxshi qo‘shnichilik va do‘stlikni mustahkamlash, qo‘shni mamlakatlar bilan sherikchilik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarda bo‘lish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, chegaradosh mamlakatlar bilan hamkorlik va o‘zaro almashinuvni yangi bosqichga ko‘tarish .

– Uchunchi dunyo mamlakatlari bilan mustahkam birlik va hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro angash va tushunishga ko‘maklashish, o‘zaro yordam va qo‘llab quvvatlashni kuchaytirish, hamkorlik sohalarini kengaytirib uning samaradorligini oshirish.

– Ko‘p tomonlama tashqi siyosiy faoliyatda faol ishtirok etish, BMT va boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda Xitoy rolini oshirish, rivojlanayotgan mamlakatlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularni qo‘llab quvvatlash[1].

Xorijiy tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ya’ni, xorij mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatishda Xitoy bir qator prinsiplardan foydalanadi.

Jahonda faqat yagona Xitoy mavjud, Tayvan XXR hududining ajralmas qismidir. Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatuvchi davlat Tayvan bilan har qanday shakldagi diplomatik munosabatlarni tugatish to‘g‘risida bayonot beradi va tugatadi. XXR hukumatini Xitoyning yagona va haqiqiy hukumati ekanligini tan oladi[2].

Ushbu davlat tashqi siyosatida tinch–totuv yashashning besh prinsipi muxim ahamiyatga ega. Tinch–totuv yashashning mashhur besh prinsipi Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi muzokaralardan boshlandi. 1953 yil XXR Davlat Kengashi raisi Chjou Enlay Hindiston delegatsiyasini qabul qilish chog‘ida ushbu prinsiplprni taklif qildi. 1954 yil iyunda Chjou Enlayning Hindiston va Birmaga rasmiy tashrifida mashhur besh prinsip xalqaro munosabatlarning normalari hisoblanishi ta'kidlandi[3].

Xitoyning boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish prinsiplari: 1949 yil 1 oktyabr kuni XXR hukumati: “ Mazkur hukumat XXRning barcha

---

[1]XXR Tashqi Ishlar Vazirligining rasmiysayti: http://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/wjb_663304/zyzz_663306/
[2]Чжоу Ихуан. Дипломатия Китая . // Межконтинентальное издательство китая . 2005 г. – С.11.
[3]O’sha manba. – B.81.

xalqlar irodasini ifoda etuvchi yagona qonuniy hukumatidir. Mazku r hukumat dunyoning har qanday hukumati bilan diplomatik aloqalar oʻrnatishga rozi, agar ikkinchi tomon tenglik, oʻzaro foyda va hududiy suverenitetni hurmat qilish prinsiplari asosida a'loqalarni oʻrnatishga rozi boʻlsa " deb e'lon qiladi. XXR qaysidir davlat Tayvanni mustaqil davlat sifatida tan olsa u davlat bilan diplomatik aloqalarni uzadi[1].

XXR kamdan–kam hollarda oʻzi yirik xalqaro tashabbuslar bilan maydonga chiqadi. Odatda bu mamlakat jahonda yuz berayotgan voqealarni baholashga ham shoshilmaydi, koʻpincha fursat poylashga yoki betaraflikka asoslangan pozisiyani egallaydi. Xitoy tashqi siyosatining soʻnggi ikki oʻn yillikdagi tashqi siyosatining tadrijiy rivojlanish jarayonini ma'lum darajada sxematizm bilan davom etayotgan bir nechta oʻzgarishlar va almashayotgan oʻzaro nisbatlar sifatida ifodalash mumkin. Bunda tashqi siyosatning milliy istiqlolni ta'minlovchi "turgʻun" holati bilan uning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish jarayonini qoʻllab–quvvatlashga qaratilgan "faolligi" oʻrtasidagi jiddiy farqni e'tiborga olish talab etiladi.

XXRning takliflari va tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan tobora keng ma'qullanmoqda va qoʻllab–quvvatlanmoqda, Xitoyning jahonda yirik davlat sifatidagi oʻrni, ahamiyati va rolini ma'qullagan va baholagan mamlakatlar soni kundan–kunga koʻpayib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy dunyoning 165 davlati bilan diplomatik aloqalar oʻrnatgan[2].

Xitoy kompartiyasi markaziy qoʻmita yangi voqelikni hisobga olib 2003 yilning oxirida "mamlakatni tinch yoʻl bilan tiklash" tashqi siyosiy konsepsiyasini ishlab chiqdi va rasmiy darajada ilgari surdi[3]. Bu konsepsiyaga quyidagi bandlar kiradi:

- XXR faqat tinch yoʻl bilan qayta tiklanishi mumkin. Xitoylik ekspertlar soʻnggi besh yuz yil mobaynida yetakchi davlatlarning yuksalish va tanazzulga yuz

---

[1] Дальневосточное отделение Российской академии наук: http://www.febras.ru/partnery/kitaj/197-vneshnyaya-politika.html

[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/Внешняя_политика_Китайской_Народной_Республики

[3] Zheng Bijian. China's Peaceful Rise: A new path for china's peaceful rise and the future of asia Bao Forum for Asia. 2003. – P.20.

tutish davrlari tarixini qiyosiy tahlil qilib, mazkur mamlakatlar gegemoniyani asosan urushlar natijasida qo‘lga kiritgan va boy bergan, degan xulosaga keldilar. Xitoy Osiyoda va jahonda yetakchi rol o‘ynash bilan bir qatorda, ba’zan mag‘lubiyatga ham uchragan.

• XXR hozirgi tinch xalqaro vaziyat yaratayotgan imkoniyatlarni qadrlashi lozim. Xitoy oldida bir–biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki vazifa turibdi: u mazkur imkoniyatlardan o‘z iqtisodiyoti va ijtimoiy infratuzilmasini samarali rivojlantirish uchun foydalanishi va shu bilan bir vaqtda tinchlikni mustahkamlashga o‘zining bor kuch–g‘ayratini yo‘naltirishi kerak.

2004 yilga kelib XXRda chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar soni qariyb yarim millionga yetdi. Amalda investisiyalashtirilgan kapital miqdori 500 mlrd. dollardan oshib ketdi. Jahonning 500 yirik kompaniyasidan 400 dan ortig‘i Xitoyda investisiyalashtirilgan loyihalarga ega[1].

• Xitoy rivojlanish jarayonida o‘z kuchiga tayanadi. U o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlashi, keng ko‘lamli Xitoy ichki bozoriga, ishchi kuchining bitmas–tuganmas zaxiralariga, aholi to‘plagan ko‘p miqdordagi valyuta va mablag‘larga, yangi sotsialistik tuzumning samaradorligiga va xitoy xalqining qudratli ijodkor kuchiga tayangan holda o‘z ichki va tashqi siyosatini shakllantirishi lozim.

• Xitoy o‘z qobig‘iga o‘ralish siyosatini olib bormasligi kerak. Uyg‘onish tashqi dunyoning tadrijiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Xitoy bundan buyon ham “islohotlar va ochiqlik” siyosatini olib borishi zarur. Xitoyning uyg‘onishi – uzoq davom etadigan tarixiy jarayon. Bugungi kunda u o‘z yuksalish jarayonining dastlabki bosqichida turibdi. Uyg‘onish uchun hali ko‘p vaqt kerak. Xitoyning uyg‘onishi boshqa mamlakatlarga tinch va unumli rivojlanishni kafolatlashi lozim[2].

XX asrning 80 yillaridan e’tiboran Xitoy tinchlikparvar tashqi siyosatni yanada faol olib bora boshladi. Mamlakat xalqaro maydonda o‘z mavqei va imkoniyatlariga mos keluvchi rolni o‘ynash niyatida. Mamlakatni modernizatsiya

---

[1]Melibayeva G.A, Gaziyev F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. // o‘quv qo‘llanma. –T., 2011. –B.23.

[2]Жэньминь жибао. Давлат кенгаши раиси Вэй Цзябао хитойлик ва чет эллик журналистлар учун матбуот конференциясида. // Пекин. 2004 15 март сони .

qilish vazifasini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tinch xalqaro vaziyatni saqlash Xitoy hukumati tashqi siyosatining uzoq muddatli maqsadi hisoblanadi[1]. Bu intilish quyidagilarda o‘zining aniq ifodasini topadi. Faol tashqi siyosat Xitoyga “islohotlar va ochiqlik” yo‘lidan olg‘a siljish va mamlakatni modernizatsiya qilish vazifasini bajarishga ko‘maklashadi. U kuch ishlatishdan voz kechishnigina emas, balki ham mintaqaviy darajada, ham dunyo miqyosida tinchlikni qo‘llab–quvvatlashda faol ishtirok etishni ham nazarda tutadi. XXR buyuk davlatlarning birortasi ham harbiy ustunlikka erishishga intilmasligi va harbiy bloklar tuzish siyosatini olib bormasligi, balki o‘zaro ishonch, o‘zaro manfaatdorlik, tenglik va hamkorlikka asoslangan xavfsizlik yangi konsepsiyasini hayotga tatbiq etishi g‘oyasini ilgari suradi[2].

Xulosa qilib aytganda, XXR hozirgi kunda o‘z tashqi siyosatida ilgari surayotgan konsepsiyalar orqali mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning chuqurlashuvi va dunyo davlatlarining integratsiyalashuvida katta ro‘l o‘ynamoqda. Xitoy dunyoning uyg‘unlashuvi va davlatlar o‘rtasida tenglikni taminlashga bo‘lgan harakati nafaqat gegemontlikka davogarlik qilayotgan kuchli davlatlar ta’sir doirasini kamaytirib dunyo xavfsizligini taminlash, balki o‘z xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ham kafolatlashshdan iborat. Bu XXRning tashqi siyosiy faoliyatida o‘z oldiga qo‘ygan vazifalardan eng muhimi hisoblanadi. Buni amalga oshirishda Xitoy davlatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama yoki ikki tomonlama shartlomalar, shuningdek mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida tuzilgan bitimlar orqali munosabatlarni yaqinlashtirish bilan integratsiya jarayonini kuchaytirmoqda va barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda birgalikda, umumiy manfaatlar asosida harakat qilishiga undamoqda.

[1] Лю Цзайци. Внешняя политика КНР и перспективы Китайско-Российских отношений. / Л. Цзайци // Мировая экономика и международные отношения. – 2004. –№ 9. – С.84.
[2] Цзян Цзэминь. ХКП XVI Бутунхитой съезди ҳисоботи. // Пекин, 2002. –Б.43.

# II BOB XXR TASHQI SIYOSATINING MOHIYATINI TASHKIL ETUVCHI YO‘NALISHLAR

## 2.1 XXR tashqi siyosatida Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy belbog‘i loyhasini amalga oshirilishi

Buyuk ipak yo‘li sharq va g‘arb mamlakatlari ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida beqiyos darajadagi ahamiyatga ega. Bu tarixiy haqiqatni uning insoniyat sivilizatsiyasida qoldirgan izl ari misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. “Buyuk ipak yo‘li” tarixiga qisqacha nazar tashaydigan bo‘lsak, u haqidagi ilk yozma ma’lumotlar miloddan avvalgi 138 yilga to‘g‘ri keladi. 2100 yil oldin Xan sulolasi davrida xitoy diplomatiyasi tarixida mashxur bo‘lgan Chjan Szyan imperator U Di tomonidan ikki marotaba Markaziy Osiyoga Ekspedidsiyaga yuboriladi. U Xitoy va markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar eshigini ochadi. Eng muhimi o‘z sayohati davomida bosib o‘tgan yo‘llarni xaritaga soladi, natijada, sharqdan ga’rbga cho‘zilgan, Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lini shakillanishiga sababchi bo‘ladi[1]. Qadimgi “Buyuk Ipak yo‘li” savdo yo‘lining tugash nuqtasi hisoblangan Yevropaga yetib borgunga qadar bir nechta tarmoqga bo‘lingan. U Xitoyning qadimgi markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. Dunxuanda u ikkiga ajraladi. “Ipak yo‘li”ning janubi–g‘arbiy tarmog‘i Takla–Makon sahrosi orqali Xo‘tanga, undan Yorkentga kelib, Pomir tog‘ining daralari orqali Vaxonga, undan Baqtriyaning bosh shahri Balxga kelgan, Balxda yo‘l uch tarmoqqa ajralib, uning g‘arbiy tarmog‘i Marvga, janubiy tarmog‘i Hindistonga, shimoliy tarmog‘i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketgan.

Ipak yo‘lining shimoli–g‘arbiy tarmog‘i esa Dunxuand, Turfan orqali Tarim vohasiga – Qashg‘arga borgan. Undan Toshqo‘rg‘on orqali O‘zgan, O‘sh, Quva, Axsikent, Ponga, undan Asht dashti orqali Xo‘jand, Zomin, Jizzaxga, so‘ngra

[1] Си Цзиньпин. О государственном управлении. // Пекин. Издательство литературы на иностранных языках. 2014. –С.387.

Samarqanda Nautaka yo‘li bilan birlashgan. Yo‘l Samarqanddan g‘arbga–Dobusiyaga, Malik cho‘li orqali Buxoro va Romitanga, undan Varaxsha orqali Paykent va Forobga borib Amul shahriga o‘tgan. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu bo‘ylab ketayotgan yo‘lga qo‘shilgan. Qadimda Marv shahri o‘zining qadimiy an’analari va har tomonga ketuvchi savdo karvon yo‘llari tutashadigan geografik qulayliklariga ko‘ra ipak yo‘lidagi eng yirik shahar edi. Tarixiy yozma manbalar va arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, Marvdan g‘arbga tomon ketgan ipak yo‘li Eronning Gekotolepil, Apaliya va Ekbatana (Xamadon) shaharlariga va ulardan o‘tib Mesopotamiyaning Ktesafon va Bag‘dod shaharlariga borgan. Undan Dajla daryosining o‘ng sohili bo‘ylab shimolga ketib, Antokiya orqali Damashqqa, undan Tir va Quddus shaharlari orqali Misrga o‘tib ketgan. Marvdan chiqqan shimoliy yo‘l esa Amul orqali Urganchga, undan SHimoliy Kaspiy bo‘ylab Shimoliy Kavkazga, so‘ngra Qora dengizning shimolidan Konstantinopolga borib, Bosfor va Dardanel orqali O‘rta Yer dengizigacha yetib brogan[1]. Buyuk ipak yo‘li uzoq davr mobaynida davlatlar o‘rtasida muhim savdo yo‘li sifatida xizmat qilib kelishiga qaramasdan, o‘rta asrlarga kelib Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan beqarorlik va Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida dingiz yo‘lining paydo bo‘lishi, ushbu tarixiy yo‘lda savdogarlar qatnovini to‘xtab qolishiga sabab bo‘ldi. XIX asrga kelib Germaniyalik geograf va sayohatchi Ferdinand fon Rixtgofen o‘z tadqiqotlari natijasida Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan bog‘lovchi qadimiy savdo yo‘li mavjud bo‘lganligini takidlab o‘tadi va uni qayta tiklash g‘oyasini ilgari suradi. 1877 yil Ferdinand fon Rixtgofen o‘z ilmiy asarida “Buyuk Ipak yo‘li” atamasini ilk bor qo‘llaydi va ushbu qadimgi savdo yo‘liga shu nomni berish taklifini kiritadi[2].

XXI asrga kelib fan–texnika taraqqiyoti eng yuqori bosqichga ko‘tarilgan bir sharoitda ham zamonaviy xalqaro munosabatlarda yangi dunyoviy o‘zgarishlarga ehtiyoj sezilayotganligi ya’ni insoniyat o‘zining qadimiy ildizlaridan kuch olishga

---

[1] Xo’jayev A.B. Buyuk Ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar.// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 2007. –B.37.

[2] Наумов С.Н. Из Истории Появления Картографического Термина Великий Шелковый Путь. // Алматинский филиал Санкт-Петербургского Гуманитарного университета профсоюзов. 28 май 2011г.

intilayotganligi tom ma’noda Osiyo va Yevropa davlatlarining o‘zaro integratsiyalashuvi bilan bir qatorda mintaqalar o‘rtasida transport–kommunikatsiyasi va mavjud muammolar yechim topishni taqazo etadi.

Bugungi kunda Xitoy tashqi siyosatida amalga oshirilayotgan loyhalardan eng muhimi hisoblangan, qadimgi Buyuk ipak yo‘li asosida tashkil etilayotgan “Buyuk Ipak Yo‘li Iqtisodiy belbog‘i”ga bo‘lgan ehtiyojni paydo bo‘lishi bir jihatdan Yevropa va Osiyo transport kommunikatsiyasi rivoji uchun tarixiy zaruriyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan AQSh, Rossiya, Xitoy, YeI, Yaponiya va Hindiston kabi qator davlatlar uchun “milliy manfaatlar” maydoni, yangi tabiiy resurslarga ehtiyoj va boshqa bir qator bilvosita sabablar vaji yaqqol namoyon bo‘ladi[1].

Buyuk Ipak yo‘lini tiklash jarayonida asosan quyidagi ikki holat alohida e’tiborga olinishi shart:

**Birinchidan, “**Buyuk ipak yo‘li”ga bo‘lgan ehtiyoj tarixiy evalyutsion jarayon sifatida qaralishi va undan butun insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti yo‘lida maqsadli foydalanish;

**Ikkinchidan,** Buyuk Ipak yo‘li o‘tadigan davlatlar geosiyosiy va geoiqtiso–diy manfaatlari uyg‘unligi ilgari surilishi, uning mintaqa integratsiyalashuviga xizmat qilishi, ya’ni mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va o‘zaro hamkorlikka keng yo‘l ochib berishi maqsadga muvofiqdir[2].

2013 yil 16 sentyabrda Qozog‘iston poytaxti ostona shahrida, Nazarboyev universitetidagi chiqishida XXR raisi Si Szipin Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya va XXR o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning o‘ziga xos yangi shakli, “Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini aytib o‘tdi. Loyhaning taklif qilinishi Xitoy va boshqa davlatlar o‘rtasida chuqur munozaraga sabab bo‘ldi. Ushbu loyhaning qanday yangilikka ega ekanligi va u Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun qanday foyda keltirishi va davlatlar manfaatlariga qanday xizmat qilishi masalasi keng muhokamaga qo‘yildi. Ushbu loyha aniq hisob kitoblar asosida tuzib chiqilgan

---

[1] Сафранчук И.А. Концепция Новый шелковый путь и политика США в Большой Центральной Азии // Международная жизнь. 2013. - №7 –С. 23.

[2] Амребаев А. Экономический пояс Великого Шелкового пути: от идеи к реальности // Казахстан в глобальных процессах. 2014. - № 3. –С.30-39.

bo‘lib, unga ko‘ra Markaziy va G‘arbiy Osiyo, Markaziy va Sharqiy Yevropa va hatto butun Yevropa bo‘ylab savdo yo‘li tashkil etish rejasi ilgari surilgan[1]. “Renmin Rebao” gazetasida yozilishicha, loyhani amlaga oshirilishi, Xitoyning ushbu yo‘l o‘tgan davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida tinch rivojlanishga keng imkoniyat yaratadi. “Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini amalga oshirilishi nafaqat Xitoy iqtisodiyotining o‘sishiga, balki ushbu yo‘l o‘tgan davlatlarning iqtisodiyotiga ham katta ta’sir o‘tkazadi. Shuningdek, ushbu savdo yo‘li davlatlar o‘rtasini ilm–fanda erishilgan yutuqlar, ijtimoiy va madaniy sohalardagi aloqalarning chuqurlashuviga ham sabab bo‘ladi[2].

Malumki, “Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasi ilgari surulguniga qadar G‘arb va Sharqni bog‘lovchi transport yo‘li 1993 yil may oyida Bryusselda Evropa Komissiyasi Markaziy Osiyo hamda Kavkaz mamlakatlari, shuningdek, Evropa Ittifoqi davlatlari vakillari uchrashuvida «Evropa va Osiyoni bir–biriga bog‘laydigan «Evropa–Kavkaz–Osiyo transport yo‘lagi TRASEKA»ni barpo etish masalasi ko‘rib chiqildi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk ipak yo‘lini tiklash borasida dastlabki amaliy qadam bo‘ldi. Hozirga qadar jahonning 50 mamlakatlari TRASEKA yo‘llari orqali o‘z yuklarini manzillarga yetkazadilar. Mazkur yo‘llardan SHarq ham, G‘arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo‘l ochiladi[3]. Ushbu jarayondan kelib chiqgan holda XXR hukumati “Buyuk ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasi qay darajada ahamiyatli ekanligini quydagilar orqali asoslaydi:

- “Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘I”ning to‘la amalga oshirilishi bilan eng avvalo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo–sotiq munosabatlari kuchayadi, savdo hajmi oshadi va ular iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadi.
- Yangi korxonalar, zamonaviy texnik stansiyalari va xizmat ko‘rsatish shahobchalari vujudga klib, mamlakatlarning ishlab chiqaruvchi kuchlari

[1] Си Цзиньпин. О государственном управлении.// Пекин. Издательство литературы на иностранных языках. 2014. –С. 387–388.
[2] Жэньминь жибао. 5 февраля 2016.
[3] Второе Ежегодное Заседание. // Конференция МПК ТРАСЕКА в Ташкенте 21 апрель. 2002 г.

rivojlanadi. Ilmiy–texnik aloqalar hamda yangi texnika va texnologiyalar keltirilishi natijasida fan–texnika taraqqiyoti tezlashadi, xo‘jaliklar va tovarlarning raqobatqobilligi kuchayadi.

- Ko‘plab yangi ish joylari tashkil qilinadi va ular ko‘payib boradi, ishsizlarning ko‘pchiligi o‘z joylariga ega bo‘ladi.
- Har bir mamlakat ichida va xalqaro ko‘lamda mehnat taqsimoti chuqurlashadi va kengayadi, mehnatning yangi turlari va yangi kasblar vujudga keladi. Milliy va xalqaro munosabatlar yanada o‘zgaradi va takomillashadi. Ekologik muhitni yaxshilash, tovarlar sifatini oshirish imkoniyatlari kengayadi.
- Mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xarid qilishning eksport va import ishlarining arzonlashuviga, iqtisodning o‘sishiga ta’sir etuvchi shart–sharoitlar, omillar yanada kengayadi. Bular natijasida kishilar moddiy hayoti yaxshilanadi, moddiy farovonligi oshadi.
- Xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ma’naviy va ma’rifiy munosabatlar, aloqalar, shu jumladan, ma’rifiy turizm yanada rivojlanadi va takomillashadi. Barcha xalqlarning har tomonlama rivojlanishi kuchayadi.
- Iqtisodiy, ma’naviy–ma’rifiy va boshqa munosabatlarning o‘sishi, mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarga, xalqaro vaziyatga ijobiy ta’sir etadi, xalqaro tinchlik va hamkorlik kuchayadi[1].

Yo‘l va Magistrallarning Buyuk Ipak yo‘li choraxasida kesishishini tamin–lash, erkin savdo va pul muomalasini yo‘lga qo‘yishda va madaniyat almashishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo, Yevro Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarnining chuqurlashuvi hamkorlik qirralarining kengayishi ko‘zda tutiladi. Ma’lumki 2000 yillik tarixga ega bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan xalqlar avloddan avlodga munosabatlarning uyg‘unlashuvi asosida yaqin munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Buyuk ipak yo‘li loyhasi asosidagi munosabat ham o‘zaro teng–huquqli, bag‘ri kenglik asosida rivojlanadi. Mazkur g‘oya iqtisodiy–siyosiy to‘siqlarni yengib o‘tgan holda Osiyo mintaqasini Markaziy

---

[1] Воробьев В.Я. О китайской идее построения. экономического пространства Великого Шелкового пути // Россия в глобальной политике. 2014. – №3 –С.102–105.

Osiyo yo‘lagi orqali Yevropa davlartlari bilan hamkorlikka chorlaydi. Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy hududi yevro Osiyoning 3 mlrd aholisi va uning bozorini kesib o‘tadi[1]. Hamkorlikning asosiy sohasi savdo va sarmoyalar hisoblanib ularga qulay shart–sharoit yaratish orqali mazkur jarayon amalga oshiriladi. Iqtisodiy hamkorlik asosida erkin almashuv savdo cheklanmalarini erkinlashtirish, tan–narxni tushurish kabi omillar o‘zining ijobiy natijalariga ega bo‘ladi. Iqtisodiy hamkorlikning Buyuk Ipak yo‘lida to‘qnash kelishi xalqlar o‘rtasidagi an’anaviy muloqot yo‘lini tiklash qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2014 yil 11–12 sentyabr kunlari Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammitda so‘zlagan nutqida quydagilarni ta’kidlagan edi: “dunyo iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan ahvolni tahlil qilar ekanmiz, xalqaro moliyaviy–iqtisodiy inqirozning jiddiy oqibatlari hali to‘liq bartaraf etilmagan, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

Hech shubxasiz, bunday tendensiya ShHT faoliyatida ishtirok etayotgan barcha mamlakatlardagi vaziyat va ularning rivojlanish suratlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday sharoitda tashkilotga a’zo davlatlarning barqaror ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotini taminlash, aniq amaliy natijalarga erishish uchun iqtisodiyot, investitsiyalar va transport kommunikatsiyalari sohalarida mintaqa mamlakatlari manfaatlariga javob beradigan keng ko‘lamli loyxalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni yanada kengaytirish vazifasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda Xitoy Xalq Respublikasi va uning Raisi Si Szipin tomonidan ilgari surilgan “Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab iqtisodiy koridor” tashki etish borasidagi tashabbusi muhim o‘rin tutadi, deb hisoblaymiz. Mazkur koridor mintaqadagi barcha mamlakatlarni uzoq muddatli iqtisodiy, ayniqsa, transmintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi manfaatlarni ilgari surishga, nafaqat ushbu loyha ishtirokchilari, balki butun Markaziy Osiyo

[1] Си Цзиньпин. О государственном управлении. // Пекин. Издательство литературы на иностранных языках. 2014. –С.387–389.

mintaqasining geosiyosiy va iqtisodiy salohiyatini sezilarli ravishda kuchaytirishga ko'maklashadi"[1].

Buyuk Ipak yo'li iqtisodiy belbog'i loyhasi asosida malga oshirilayotgan quruqlikdagi savdo yo'li, Markaziy, Janubiy, G'arbiy Osiyo, ya'ni Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Turkiya, Saudiy Arabiston, Iroq va Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlarni qamrab oladi[2]. Markaziy Osiyo iqtisodiy belbog'i atrofida joylashgan hududlar Yevropa va Osiyoni bog'lovchi hudud hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu nintaqada joylashgan davlatlar "Buyuk ipak yo'li iqtisodiy belbog'i" loyhasini amalga oshirishda muhim strategik ahamiyatga ega. So'ngi yillarda Xitoy Markaziy Osiyo iqtisodiy koridorida joylashgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari uzluksiz rivojlanib bormoqda, iqtisodning yuksalishidagi o'zaro bog'liqlik va tovar ayirboshlashda ham katta yutuqlarga erishilmoqda. XXR yuqorida zikr etilgan davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik va birgalikda umumiy taraqqiyotga erishish eng muhim masal sifatida qaramoqda. Bu bevosida Buyuk ipak yo'li iqtisodiy koridori strategiyasini amalga oshirishni tezlashtirishni taqazo etmoqda. XXR va Markaziy Osiyo iqtisodiy koridorida joylashgan davlatlar o'rtasida savdo va energetika sohasidagi hamkorlik, shuningdek investitsiya va mineral resurslar doirasidagi munosabatlar o'rnatilganiga uzoq vaqt o'tdi. Xitoyning energetika sohasidagi xavfsizligini taminlashda Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, shuningdek, Arab mamlakatlaridan import qilinatigan tabiiy gaz va neft Xitoy uchun muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Rossiya va Ukrainaning don maxsulotlar, paxta, mineral maxsulotlar, mo'yna va boshqa tovarlari Xitoy bozorini boyitadi. Ushbu jarayon Xitoy iqtisodiyotini globallashuvini taqazo etadi[3]. Hozirgi kunda XXR va Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Arab davlatlari bilan iqtisodiy sherik sifatidagi o'rni muntazam ravishda o'sib bormoqda va ular

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi // Xalq so'zi gazetasi, 2014 yil 13 sentyabr soni.

[2] 习近平提战略构想："一带一路"打开"筑梦空间" (Си Цзиньпин: «Один пояс и один путь» откроет новые горизонты мечты) 13 март 2013 г.

[3] Бугаенко А. Экономический пояс Шелкового пути: цели и перспективы // Казахстан в глобальных процессах. – 2015. –№ 1. – С.64-73.

o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlik kengaymoqda. Buni ular o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni ijobiy natijalarida ko‘rish mumkin. Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘ini to‘liq yo‘lga qo‘yish Xitoy va Markaziy Osiyo iqtisodiy belbog‘i bo‘ylab joylashgan davlatlar iqtisodiyotini unifikatsiyalash va o‘zaro qo‘llab quvatlashni kuchaytiradi. Bu esa kelajakda iqtisodning turli yo‘nalishlardagi hamkorlikni uzliksiz ravishda kengaytirib borishga imkoniyat beradi. Iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro foyda savdo aloqalari kuchaytirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Malumki, Xitoy va Markaziy Osiyo o‘zining joylashuviga ko‘ra geosiyosiy ustunlikka ega, ikki tomonlama transchegaraviy savdo aloqalari, ShHT doirasidagi o‘zaro hamkorlik Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida muhim omil bo‘ladi. So‘ngi 20 yil ichida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi keskin darajada o‘sdi. Xitoy Markaziy Osiyo davlatlarining Tovar ayirboshlovchi hamkorlari orasida yetakchi o‘rinni egalladi. 2012 yil so‘ngida Xitoy Qozog‘iston va Turkmanistonning birinchi darajali, O‘zbekiston va Qirg‘izistonnig ikkinchi darajali Savdo hamkori bo‘lishga erishdi. 1992 yilda Markaziy Osiyoning beshta davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgan kundan boshlab, Xitoy va ushbu davlatlar o‘rtasida savdo–iqtisodiy hamkorlik rivojlanib kelmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra diplomatik aloqalar o‘rnatilgandan so‘ng va 2001 yil ShHT doirasida ham iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgach, ikki tomonlama Tovar ayirboshlash hajmi muntazam ravishda oshib bordi, 2012 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 46 mlrd dollarga yetdi[1].

Xitoy Bosh Bojxonasi ma’lumotlari ko‘ra, 2013 yil ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida 4mlrd 532mln dollarni tashkil etgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 57.62 foizga o‘sganligini bildiradi. Xitoy va Tojikiston o‘rtasida 1mlrd 959 mln dollarni tashkil etagan, bu o‘tgan yilga nisbatan 5.4 foizga o‘sganligini bildiradi. Xitoy va Turkmaniston o‘rtasida 10.3 mlrd

[1] Лузянин С.Г. ШОС как прообраз регионального интеграционного объединения в области экономики и безопасности // Большая Восточная Азия: мировая политика и региональные трансформации: научно-образовательный комплекс. –М. : МГИМО (Университет). 2013. –С.334.

dollarni tashkil etagan, bu oʻtgan yilga nisbatan 3.3 foizga oʻsganligini bildiradi. Xitoy va Qozogʻiston oʻrtasida 26 mlrd dollarni tashkil etgan, bu oʻtgan yilga nisbatan 11.4 foizga oʻsganligini bildiradi. Ushbu koʻrsatkich 2012–yil Xitoy va Qirgʻiziston oʻrtasida 5mlrd 162mln dollarni tashkil etdi va bu 2011–yilga nisbatan 3.7 foizga oʻsganligini bildiradi[1].

"Buyuk ipak yoʻli iqtisodiy belbogʻi" loyhasini amalga oshirilishi ushbu koʻrsatkichlarni yanada oʻsishiga turtki boʻladi. Lekin, gʻarb va sharqni bogʻlovchi hudud Markaziy Osiyoga ushbu loyhani amalga oshirilishi koʻplab ijobiy natijalar berishiga qaramasdan, uni amalga oshirishda Markaziy Osiyo davlatlari bir qator qiyinchilik tugʻdiradigan masalalarga duch kelmoqda. Buni quydagilarda kuzatish mumkin:

Birinchi masala bu Markaziy Osiyo davlatlarini na yakka tartibda, na jamoa boʻlib, na ShHT yoki Yevroazes kabi xalqaro tuzilmalar doirasida mintaqalararo savdo–iqtisodiy munosabatlarning istiqbolini oʻzida aniqlashtirgan konsepsiyaning mavjud emasligi. Uzoq yillar davom etgan Markaziy Osiyodagi Sovet tuzumi, Afgʻonistondagi bardavom qurolli mojaro, hamda AQSh tomonidan Markaziy va Kichik Osiyo davlatlariga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarni qoʻllashi mazkur mintaqalarning tashqi savdo va trasport infratuzilmasi imkoniyatlariga toʻsqinlik qilib kelgan.

Ikkinchi masala mavjud transport infratuzilmalarning mintaqaviy savdo salohiyatga nomutanosibligida[2]. Markaziy Osiyodagi koʻpchilik avtomobil va temir yoʻllar doimiy ta'mirlash va modernizatsiya ishlari olib borilmaganligi sababli yaroqsiz holga kelib qolgan. Ular zamonaviy talablarga javob berishi uchun va mintaqalararo savdo–iqtisodiy munosabatlarning oʻsib borayotganligini inobatga olgan holda qayta rekonstruksiya qilishni talab etadi. Investisiyalarning yetarli miqdorda jalb etilmayotganligi istiqbolni aniq koʻra bilishga toʻsqinlik qiladi. Trasport sohasidagi investision faoliyatning oʻziga xos tomoni shundaki,

[1] Жуков С.В., Резникова О.Б. Центральная Азия и Китай: экономическое взаимодействие в условиях глобализации. –М. : ИМЭМО РАН. 2013. –С.24.

[2] Ма Юань. Новый шелковый путь: Заново пройденный маршрут.//Межконтинентальное издательство Китая. 2014. –С.73.

Markaziy Osiyo davlatlari neft va gaz eksporti nazoratini davlat nazoratida ushlab turishibdi, Aynan shuning uchun moliyaviy manfaatga ega bo‘lmagan xususiy sektor transport infratuzilmasiga investisiyalar kiritishmaydi. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar hajmi mintaqaning barcha mamlakatlarida yetarli miqdorni tashkil etmaydi.

Uchinchi masala transport infratuzilmasini ishga solish jarayonida soliqlar, bojxona va chegarani kesib o‘tish muammolarining mavjudligi bilan bog‘liq[1]. Mintaqa davlatlarida chegarani kesib o‘tish tartibi yagona tizimga keltirilmaganligi va bojxona tariflari unifikatsiya qilinmaganligi mintaqa ichida savdo munosabatlarini ham tang holga keltirib qo‘yyadi. Mahsulotlar ayirboshlash bo‘yicha davlatlararo shartnomalarga rioya etmaslik va aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi natijasida transport infratuzilmasining qaysi bo‘lagini rivojlantirishda ehtiyoj yuqori ekanligi aniq belgilanmagan. Oqibatda transport infrastrukturasi tizimidan kontrabanda maqsadlarida foydalanib, hatto noqonuniy transport yo‘laklari yaratilmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda “Buyuk ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini amalga oshirilishi va uni Markaziy Osiyo davlatlari orqali kesib o‘tishini taminlanishi ushbu mintaqada quydagi imkoniyat–larni yaratadi:

**Birinchidan,** Buyuk Ipak yo‘lida noan’anaviy transport koridorlarining barpo etilishi Markaziy Osiyoning xalqaro munosabtlardagi stretegik ahamiyatini oshiradi;

**Ikkinchidan,** Mintaqa davlatlari integratsiyasida qo‘shni mamalakatlarning xayrixohligini ta’minlash va dunyoning kuchli davlatlari manfaatdorligini belgilovchi sabablardan biri jahon bozorlariga neft va gaz mahsulotlarini yetkazib berishda Markaziy Osiyo transport tarmoqlari salohiyatining o‘sib borishidir;

**Uchinchidan,** O‘zbekistonning Yevroosiyo makromintaqasidagi samarali va milliy manfaatlarga mos keluvchi integratsiyasini ta’minlash uchun uning

[1] Амребаев А. Экономический пояс Великого Шелкового пути: от идеи к реальности // Казахстан в глобальных процессах. –2014. –№ 3. – С.58.

hududidan o‘tuvchi transport yo‘laklari va tashqi savdoni faollashtirishning geoiqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining Ufa sammiti davomida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov XXR raisi Si Szinpin bilan muzokara o‘tkazdi. Uchrashuvda Si Szinpin ikki davlat o‘rtasida savdo–iqtisodiy aloqalarni rivojlan–tirish uchun katta salohiyat mavjudligi, Xitoy tomoni sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda o‘zaro hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanligini ma'lum qildi. O‘z navbatida Islom Karimov O‘zbekiston Xitoyning “Ipak yo‘li” iqtisodiy belbog'ini tashkil etish bo‘yicha tashabbuslarini to‘liq qo‘llab–quvvatlashi va bu loyihada faol ishtirok etishini ta'kidlab, O‘zbekiston shuningdek, SHHT doirasida “shanhay ruhi” g'oyasiga asoslangan hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etishini bildirdi[1].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Buyuk Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini amalga oshirilishi ming yillar davomida insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishida muhim o‘rin tutgan Buyuk ipak yo‘lining tiklanishiga sabab bo‘ladi. Yevropa va Osiyoning integratsiyalashuviga yordam beradi va ular o‘rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

## 2.2 Xalqaro munosabatlarda manfaatlar uyg‘unligi va tengligini taminlash Xitoy tashqi siyosatining strategik yo‘nalishi.

XXI asr xalqaro munosabatlariga nazar soladigan bo‘lsak, davlatlararo munosabatlarda tenglik va manfaatlar uyg‘unligini taminlash eng muhim masalalardan biri ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu holat xalqaro munosabat aktorlarining jahon siyosatida faol ishtirokini taminlamoqda. Ayrim hollarda insonning yashashi uchun biologik zarur bo‘lgan sharoitlar mavjud bo‘lsada, xalqlarning noroziliklari yakun topmayotganini kuzatish mumkin. Bunga bir necha

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2014 yil 13 sentyabr soni. –B.1.

sabablar mavjud. Shularning asosiy ustunini davlatlar o‘rtasida notenglik va manfaatlar xilma xilligi tashkil etmoqda.

Barcha davlatlar manfaatlarni o‘zaro uyg‘unligini va imkoniyatlar tengligini taminlash kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanishi hozirgi kunda keng kuzatilmoqda. Agar musulmon dunyosida G‘arb dunyosiga nisbatan iqtisodiy–siyosiy orta qolish sababli alamzadalik yuzaga kelgan bo‘lsa, G‘arb dunyosida hozirgi holatdagi qulay sharoitga ega bo‘lgan hayotni qo‘ldan boy berib qo‘yish qo‘rquv hissi mavjud. Ikki holatda ham bu ikki sivilizatsiya orasida bir–biriga nisbatan nafrat hissi keying 15 yillikda o‘z cho‘qqisiga yeti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin Milliy manfaatlarni o‘zaro uyg‘unligini va imkoniyatlar tengligini taminlash muammosi nafaqat bu ikki sivilizatsiyada balki dunyoning boshqa hududlarida ham mavjud.

Har bir davlat o‘z manfaatini boshqa bir davlatnikidan ustun qo‘yishi ular o‘rtasida ziddiyat keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon bir tomondan iqtisodiy manfaatlar, boshqa tomondan siyosiy o‘yinlar siquvida qolgan dunyo mamlakatlarining ahvolini yanda og‘ir vaziyatga solib qo‘ymoqda. Aynan milliy manfaatlarning xilma xilligi mamlakatlar siyosatiga aralashish yoki xalqlarning his tuyg‘ularidan instrument sifatida foydalanish jahon siyosatida ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda. Bunga AQSh va boshqa G‘arb davlatlarining Iroqqa nisbatan intervensiyasi, Rossiyaning Ukrainiya ichki ishlariga aralashuvi yoki Suriyaga Rossiya va AQShning kirib ushbu davlat ichki ishlariga aralashuvini misol qilib keltirish mumkin. Geosiyosiy ko‘z bilan qarasak davlatlarning tashqi soyosati har qanday his–tuyg‘u va prinsiplardan holi bo‘lishi lozim, davlatning yagona yo‘nalishin bu o‘z manfaatlarini himoya qilishidir. Lekin, II Jahon Urushining falokatli oqibatlari va undan keying jahondagi idealogiyalarning to‘qnashuvi tufayli geosiyosiy metodlar tubdan o‘zgardi. Aniq maqsadga ochiqlik bilan yondashish davlatlarning insoniylik prinsiplaridan va adolat tushunchalaridan uzoqlashtirib qo‘yar edi. Bunday holatni oldini olish uchun qudratli davlatlar turli xil “niqoblovchi mafkuralar”ni qo‘llay boshladi. Asosan ikki qutubga ega bo‘lgan ideologik dunyoda, AQSh boshchiligidagi G‘arb mamlakatlari, asosiy e’tiborlarini

inson huquqlari va demokratik prinsiplarni ishlatgan holatda oʻz siyosiy iqtisodiy maqsadlariga erishishga qaratdilar, oʻz navbatida Sovet Ittifoqi boshchiligidagi Sotsialistik mamlakatlar asosiy e'tiborlarini Kapitalizimga, ijtimoiy tengsizlik va boylikni notekis taqsimlanishiga qarshi kurashuvchi, kommunistik ideologiyalarga qaratdi[1].

1991 yilda Sovet Ittifoqini qulashi, AQSh va Gʻarb mamlakatlarini xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamladi. Bunday gʻalaba oʻz navbatida Inson huquqlari va Demokratiya tushunchalarini instrument sifatida ishlatilishini oqladi desak, xato qilmagan boʻlamiz. Lekin oradan koʻp vaqt oʻtmay Gʻarb mamlakatlari dunyodagi gegemonlik uchun ulardagi qudrat yetarli emasligiga amin boʻldilar. Bu esa ularning oʻz ideologik qarashlarini yoyishlariga zoʻr berishlariga olib keldi. Natijada , XXI asrga kelib Demokratik qarashlar mamlakatlarga, hattoki, urushlar orqali majburlab kiritila boshlandi. Shu darajada borib yetdiki, yangi qurilayotgan jamiyatlarda demokratiya va inson huquqlari tushunchalariga ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan yondashila boshlandi. Oʻz navbatida bu Gʻarb davlatlarining siyosiy iqtisodiy ta'sirini cheklanishiga olib keldi. Ayni shu jarayonlar yuzaga kelayotgan bir vaqatda dunyo siyosiy sahnasiga Osiyoda hozirgi kunda turli sohalarda ustunlikka erishayotgan, katta kuch va ta'sirga ega XXR kirib keldi va oʻzining ideologiyalarini ilgari surmoqda, bu orqali u mamlakatlarni yangi dunyo tartibotini oʻrnatishga undamoqda.

Qisqa davr mobaynida XXRning dunyo siyosiy sahnasida katta ta'sirga ega kuchlar guruhiga shiddat bilan kirib kelishi koʻplab davlat arboblari, siyosiy yetakchilar, olimlar va keng omma etiborini oʻziga qaratdi. Xitoy toʻgʻrisida gap borganda turli jurnal, gazeta va maqolalarda unga nisbatan "Xitoy jumbogʻi", "Uygʻonayotgan ajdar", "katta shaxmat doskasi" kabi atamalar qoʻllaniladi[2]. Bunga sabab oʻtgan yillar davomida XXR iqtisodiyotidagi yuksalish va siyosatidagi ulkan oʻzgarishlar OAV, xalqaro siyosiy va ilmiy anjumanlarda keng muhokamaga sabab boʻldi. Zamonaviy dunyoda XXR tomonidan olib borilayotgan

---

[1]Шишкин В. А. Становление внешней политики после революционной России и капиталистический мир: от революционного «западничества» к «национал-большевизму». Очерк истории. СПб. 2002 г. –С.361.
[2] The Rise of China and its power Status. // Chinese journal of international politics, vol.10. 2013. –P.35.

siyosat xalqaro munosabatlar rivojlanish tendensiyalarida muhim ahamiyatga ega. Siyosatchilar, Olimlar va jurnalistlar orasida XXRning xalqaro maydondagi o‘rni, ya’ni hozirgi globallashuv natijasida Xitoyning dunyodagi o‘rni va roli qay darajada o‘sganini aniqlash eng dolzarb masala bo‘lib bormoqda. XXR olib borayotgan tashqi siyosatining tub mohiyatini tushunib yetish uchun uni alohida e’dibor bilan kuzatish va tahlil qilish, amalga oshirilayotgan o‘zgarish va yangiliklarni o‘tmish va hozir bilan qiyoslash lozim.

Xitoy ming yillik tarixga ega va o‘z navbatida xalqaro ahamiyatga ega mamlakatdir. O‘zining iqtisodiy va siyosiy qudratining yuqoriligiga qaramasdan, Xitoy xalqaro muammolarga o‘ta sovuqqonlik va pragmatizm bilan yondashadi. Eng qizig‘i biror bir xalqaro doiradagi muammoni hal qilishda u G‘arb davlatlariga yon bosmaydi va o‘z pozitsiyasini ochiqlik bilan bildiradi. Shunga qaramasdan bunday qarshilik uning g‘arb mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarga putur yetkazmaydi. Xitoyning bunday muvozanatni saqlab turishiga sabab bo‘lgan asosiy omil bu uning falsafasidir, ya’ni “Xitoy falsafasi”[1]. Bu falsafaning asosi– o‘ziga qarshi bo‘lgan kuch bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘qnash kelmaslikdir. Balki o‘sha kuchni o‘z og‘ushiga qabul qilib asta sekinlik bilan uni so‘ndirish va undan so‘nggina uni boshqarishdir. Bunday ko‘rinishdagi holat Xitoyning yuqori lavozimli amaldorlarining va davlat arboblarining harakatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga misol qilib Tayvan muammosini keltirishimiz mumkin. Tayvan, 1949 yilda Chan Kay Shi tomonidan G‘arb kuchlariga xayrixoh guruhlarga boshpanaga aylantirilgandan buyon, Xitoy bilan doimiy kelishmovchilikda bo‘lib kelmoqda[2]. Lekin Xitoy Xaql Respublikasining harbiy kuchi va Tayvan Oroliga xalqaro huquq normalari doirasidagi egalik qilish huquqlarini hisobga olgan holda uni munosabatiga izoh bersak, Tayvanning Xitoy tomonidan butunlay egallab olinmasligiga ko‘pchilik tarixiy sabablar keltirib o‘tiladi, lekin masalaga chuqurroq yondoshsak uning asosan iqtisodiy ahamiyat kasb etishini anglab olish mumkin.

---

[1] Буров В.Г. Современная китайская философия. –М., 1980. –С.344.

[2] Taiwan and China in 'special relations. // China Post. 4 September 2008.

Tayvanga Xitoy iqtisodiy mustaqil orol maqomini berish bilan shu hudud orqali chet mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni saqlab qolishga muvaffaq bo‘ladi. huddi Gonkong va  Makao shahar–davlatlari kabi. Kommunistlar Xitoy hukumati tepasiga kelgan ilk davirlarda mamlakatning iqtisodiy ahvolini tang ekanligini tezda anglab yetadilar. Xitoy butunlay yakkalanib qolmasligi uchun, G‘arbning kapitalistik davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni Tayvan, Gonkong va Makao shaharlari orqali davom ettirdi. Albatta Xitoyning mavjud pragmatik tashqi siyosatida uning yaqin tarixi ham muhim rol o‘ynaydi. Azaldan bozor iqtisodiyotiga asoslangan, lekin ijtimoiy tizimlari kuchli bo‘lgan Xitoy sivilizatsiyasini Kommunizm to‘laligicha yemirib tashlay olmaydi. Balki tarixiy ijtimoiy va iqtisodiy tizimni rasmiy tarzda yo‘nalishlarga ajratib beradi.  Madaniy inqilob va Mao Szedunning o‘limidan so‘ng, 1978 yillarga kelib, Xitoy Hukumat raisi Den Syaopin boshchiligida o‘z ichki siyosatida kuchli burulish yasadi. Avtoritarizm va Planlashtirish siyosatidan chekinib, mamlakatni markazlashgan kuchli hukumatini desentralizatsiya qila boshladi[1]. Har bir provinsiyaga o‘z–o‘zini boshqarish va iqtisodiy masalalarda chet–el investitsiyalarini jalb qilish uchun ular bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilishga ruxsat berdi. Natijada Xitoy , tarixda birinchi marotaba kommunistik hukumat tomonidan boshqariladigan va bir paytning o‘zida bozor iqtisodini o‘zida mujassam etgan, birinchi gibrid mamlakatga aylandi. Aynan shu islohotlar amalga oshirilganidan beri Xitoy rivojlanishdan chekinganicha yo‘q.

Bugungi kunda Xitoy iqtisodiy qudrati bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni, savdo–sotiq operatsiyalari bo‘yicha birinchi o‘rinni, chet–el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallaydi. Iqtisodiy qudratning bunday shiddat bilan o‘sishi bir vaqtning o‘zida Xitoyning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini ham tobora muhim ahamiyatga ega bo‘lishini ta’minlamoqda. Lekin o‘zining iqtisodiy va siyosiy kuchiga qaramasdan, Xitoy jahonda yuz brayotgan muhim masalalarni yechishda o‘zining masalaga yopiqlik va neytrallik bilan yondashishi bilan ajralib turadi. Sovet Ittifoqining qulashi va ko‘pchilik Sotsialistik

---

[1] Deng Xiaoping:, ‘国际形势和经济为题，邓小平文宣，第 3 卷，号 l3 北京：人民出版社 年 1993. 37 页.

mamlakatlardagi iqtisodiy tanglik, Xitoy uchun muhim dars bo'lgan desak adashmaymiz. O'zining eng ko'p sonlik aholisi, o'ziga xos geografik joylashuvi va hududi bilan Xitoy izolyatsianizm siyosatini olib borish orqali kelajakda faqat mamlakatning inqirozga yuz tutishini keltirib chiqarishini juda erta anglab yetdi.

Xitoy tashqi siyosiy faoliyati aniq maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zgaruvchanligi bilan xarekterlanadi. Hozirgi Xitoyning tashqi siyosat doktrinasi o'tgan o'n yilliklar davomida doimiy yangilanishlar bilan shakillanib kelmoqda. Ayniqsa, 1991–yildan keyin Xitoy tashqi siyosatida dunyodagi globallashuv jarayonida faol ishtirok etishga bo'lgan keng ko'lamli harakatni kuzatish mumkin.

Har qanday iqtisodiy tashkilotlar, siyosiy integratsiyani kuchaytiruvchi ittifoqlar Xitoyning nazaridan chetta qolmadi. XXR Tashqi siyosati davlat rahbarlari ilgari surgan g'oyalar va taklif qilgan konsepsiyalar asosida olib boriladi. Xuxusan, 2005 yil XXR raisi Hu Szintao tomonidan dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, davlatlar o'rtasida tenglik va manfaatlar uyg'unligini kafolotlovchi "Uyg'unlashgan dunyo" konsepsiya alohida ahamiyatga ega.

"Uyg'unlashgan dunyo" konsepsiyasining mohiyati tinch, barqaror, ochiq va tolerant dunyo bo'lib, davlatlar o'rtasida tenglikni va manfaatlar uyg'unligini taminlaydi. Uyg'unlashgan dunyoda o'zining ijtimoiy tizimi va taraqqiyot modeliga ega turli sivilizatsiyalar o'zaro birlashadi, birgalikda rivojlanadi va turli sohalarda ishonchga asoslangan aloqalar yo'lga qo'yiladi. Xalqaro huquqning umumetirof etilgan normalariga asoslangan holda davlatlar tinchligi va xavfsizligi taminlanadi va bu xavfsizlik institutlarining faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi.

XXR tomonidan hozirgi vaqtda olib borilayotgan tashqi siyosatining konseptual asoslari jahonda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mustahkamlash, mamlakatlarning o'zaro manfaatli hamkorligini yangi yuqori ma'rifiy darajada hal etish g'oyasini o'z ichiga qamrab olganligi holatiga alohida e'tibor qaratish lozimdir[1].

---

[1] Идиров У.Ю. Замонавий Хитой ташқи сиёсатидаги етакчи тенденциялар.// Мақола."Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат" мавзусидаги XII илмий-амалий конференсия материаллари тўплами:. –Т.:ТДШИ. 28 ноябр 2015 йил. –Б.245–246.

Shuningdek, xalqaro masalalar muhokama va muzokaralar o‘tkazish orqali hal etiladi. bunga misol sifatida Afg‘oniston muammosida Xitoy tmonidan olib brogan siyosatda ko‘rishimiz mumkin. 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan so‘ng Afg‘onistondagi vaziyat tubdan o‘zgardi. Xitoy o‘zining muhim 5 prinsipini ilgari surish orqali Afg‘oniston muammosini hal qilishda faol ishtirok etdi. Ushbu besh prinsip quydagilardan iborat:

1) Afg‘onistonning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi taminlanishi lozim;
2) Afg‘onistonning ichki ishlariga aralashmaslik, Afg‘oniston xalqining o‘z muammolarini o‘zi hal qilishi uchun shart–sharoit yaratib berish;
3) Yangi hukumat mustahkam fundament asosida tashkil etilishi, mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha millat manfaatlarini o‘zida aks ettirishi, ekstremizm, terrorizmga yo‘l qo‘ymasligi, tinch tashqi siyosat olib borishi, dunyo hamjamiyati, asosan qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalarni yo‘lga qoyishi lozim;
4) Afg‘oniston muammosini hal qilishda BMTning faol ishtirikoni qo‘llab quvatlash;
5) Afg‘oniston muammosini faqat tinch yo‘l bilan hal qilish va mintaqada barqarorlikni taminlashga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirish (BMT nazorati ostida).

Xitoy vakillari Afg‘onistonni qayta tiklash masalasi bo‘yicha Vashington, Istanbul, Bryusselda o‘tkazilgan konfrensiyada ishtirok etdilar. Afg‘onistonda vaqtincha hukumat tuzilgandan so‘ng 2001 yil 22 dekabrda Xitoy Afg‘oniston bilan do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘ydi. 2002 yil fevral oyidan boshlab XXRning Afg‘onistodagi elchisi tayinlandi va u o‘z faoliyatini boshladi. Bu orqali Xitoy Afg‘onistonni qayta tiklash va rivojlanish jarayonida faol ishtirok etdi. Xitoy hukumati Afg‘onistonni qayta oyoqqa turib olishi va rivojlanishi uchun 150 mln AQSh dollari ajratishini ma’lum qildi, shuningdek 30 mln Yuan va 1mln AQSh dollar moddiy yordam berishi to‘g‘risidagi verbal nota imzoladi. Bu orqali Xitoy Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni taminlash uchun davlatlar tomonidan

ko‘rsatilgan yordamlar ichida eng kattasini amalga oshirdi[1]. O‘z navbatida Xitoy o‘z tashqi siyosatida mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish uchun bo‘lgan harakatlarni, siyosiy ta’sirni kuchaytirish va ideologik qarashlarni yoyishdan ustunroq vazifa deb belgilab oldi. Shu asnoda Xitoy tashqi va ichki siyosatning yo‘nalishidan qat’iy nazar o‘zi bilan iqtisodiy hamkorlik qilishga tayyor bo‘lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy shartnomalarni tuzishga kirishib ketdi. Ayni paytda, AQSh boshchiligidagi G‘arb mamlakatlari Sovet Ittifoqining qulashidan foydalanib, o‘zlarining ideologik urushlariga zo‘r bergan holda ko‘pchilik yangi paydo bo‘lgan va Sovet Ittifoqi ta’sir doirasida bo‘lgan mamlakatlarda xavf soluvchi taasurot qoldira boshladilar. Bundan tashqari G‘arb mamlakatlari turli xil umumbashariy qarashlar bo‘lmish demokratiya va inson huquqlari kabi qarashlar bilan niqoblab olish holatlari avj ola boshladi. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda ularga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirdi. Shunday davirda Xitoy eng optimal sotib oluvchi rolini o‘ynadi. Chunki Xitoy bilan iqtisodiy kelishuvlarning asosini faqat va faqat ikki tomonning iqtisodiy manfaatlari tashkil etardi va bu o‘sha mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga hech qanday to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir va bosimlarsiz amalga oshirildi.

Agar vaziyatga umumiy tarzda baho berilsa, Xitoy nafaqat iqtisodiy tomondan, balki siyosiy tomondan ham g‘olibdir. Birinchidan Xitoyning turli mamlakatlarga kiritayotgan investitsiyalar va iqtisodiy hamkorlikning siyosiy mevalari kafolatlangandir. Ya’ni Xitoy to‘g‘ridan to‘g‘ri mamlakatga ta’sir o‘tkaza olmasada bora–bora investitsiyalar ko‘lamining oshishi bilan, mazkur mamlakatlar Xitoyning ta’siriga tushib qolishini ta’minlaydi. Ikkinchidan Xitoy to‘la qonli ravishda xalqaro maydonda o‘zining tinchliksevar mamlakat deb atashga haqqi bor. So‘ngi ellik yil davomida Xitoy hech qaysi mamlakatning ichki ishlariga aralashmagan, harbiy intervensiya haqida esa gap bo‘lishi mumkin emas. Bu esa uning kafolatli sherik statusini yanada mustahkamlaydi. Uchinchidan Xitoy dunyodagi qudratli mamlakatlar sirasiga hech qaysi mamlakat bilan

---

[1] Чжоу Ихуан. Дипломатия Китая // Межконтинентальное издательство китая. 2005 г. – С.102.

to‘qnashmasdan yetib kela oldi. O‘zinin u yoki bu masaladagi fikirlarini bildirish bilan Xitoy, o‘zida boshqa mamlakatlarga nisbatan nafrat va dushmanlik kayfiyatini rivojlantirmadi.

Xitoy “ko‘p qutubli dunyo” g'oyasini faol ilgari suradi va uni amalga oshirishni qat'iy qo‘llab quvatlaydi, shuningdek, Xitoy o‘zini ushbu qutublardan birida muhim rol o‘ynovchi davlat sifatida qaraydi. Xitoy hukumati milliy manfaatlarini himoya qilish tashqi siyosatning eng muhim vazifasi deb biladi. Xitoy tomonidan olib borilayotgan geosiyosat o‘ta kuchli siyosiy tahlil va paragmatik asosida olib boriladi. Hozirgi kunga kelib Xitoy AQShning Sharqiy Osiyodagi o‘rnini va manfaatlarini siqib chiqarmoqda. Shunga qaramay Xitoy iqtisodiy va savdo sohasida AQSh bilan faol hamkorlikni yo‘ga qo‘ygan. O‘zining geosiyosiy ta’sir doirasini kengaytirish orqali Xitoy AQShni Yevropa va Osiyodan butunlay siqib chiqarish niyatida emas, chunki AQShning ishtirokisiz ushbu hududlarda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taminlab bo‘lmaydi. XXRning yana bir geosiyosiy maqsadi hozirgi rivojlanayotgan dunyoda o‘z ta’sirini va o‘rnini mustahkamlash.

Xitoy uchunchi dunyo sifatida e’tirof etiladigan Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarining manfaatlarini, ularning xalqaro munosabtlardagi haq–huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi. Bu orqali Xitoy o‘zining global ta’sirini mustahkamlab oladi. Afrika va Lotin Amerikasida joylashgan mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalar Xitoyda islohotlar amlaga oshirilgan(1980–1990 yillar) davridan buyon o‘zaro teng va manfaatli asosda rivojlanib kelmoqda. Xitoyni ushbu mamlakatlar bilan diplomatik munosabatga kirishuvi va aloqalarni mustahkamlashga undovchi to‘rt omil mavjud: bular birinchidan, Xitoy uchun uchbu mintaqadagi tabiiy boyliklarga, xuxusan, neft va foydali qazilmalarga bo‘lgan talabning oshganligi; ikkinchidan, Xitoy o‘zining dunyo miqyosidagi bozor shaxobchalarini kengaytirish, ya’ni ushbu mamlaklarga doimiy ravishda xo‘jalik maxsulotlari, kiyim–kechak, mashina, texnika, oddiy qurol–yarog‘lar ekspot qilish. Uchinchidan mamlakatlar bilan birgalikda, o‘zaro tenglik va manfaatlar uygug‘unlashgan ko‘p qutublik dunyo tartibotini o‘rnatish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunga kelib dunyoda globallashuv jarayoni yuz berayotgan bir davrda, davlatlar o‘rtasida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlardagi farq ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlarining rivojlanishi turli bosqichlarda kechmoqda. Bu esa ular o‘rtasidagi tengsizlik, xalqaro masalalarda biri ikkinchisidan ustunlik qilishga bo‘lgan xarakatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlarni inobatga olgan holda Xitoy Xalq Respublikasi o‘zining “ko‘p qutubli dunyo”, “uyg‘unlashgan dunyo” kabi konsepsiyalarini ilgari surish orqali barcha mamlakatlarning manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash va birgalikda rivojlanishga davat etmoqda. Bu orqali Xitoy davlatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy sohalarda tenglikni taminlashga erishishni ko‘zda tutadi.

## 2.3 SHanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi XXR tashqi siyosatining asosiy tendensiyalari.

Shanxay hamkorlik tashkiloti mavzusi bugungi kunda nafaqat xalqaro munosabatlar tarixi uchun, balki unga a’zo davlatlarning tarix fani uchun yangi va dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Sababi, bugungi kunda jahonda ro‘y berayotgan global darajadagi muammolar – jahon iqtisodiy inqirozi, xalqaro keskinlik, terrorizm, ekstremizim, norkobiznes, ayirmachilik, ekologiyaning buzulishi bir tomondan, ikkinchi tomondan iqtisodiy integratsiyalashuv mintaqadagi birgina davlatning o‘zi bilan hal etilmaydi. Buni hal etish uchun xalqaro hamkorlikda ShHT singari tashkilotlarning faoliyatiga ehtiyoj mavjud[1].

“ShHTning ushbu barcha murakkab vazifalarni amalga oshirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uni o‘z ishtirokchilarining holati va imkoniyatlariga mos, mumkin qadar ochiq, omilkor va samarali tashkilotga aylantirish nihoyatda muhimdir. ShHT xalqaro siyosiy birlashma sifatida nafaqat

---

[1] Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ)нинг аҳамияти // сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007. –Б.24.

mintaqaviy muammo bilan, balki boshqa xalqaro mintaqaviy muammolar bilan ham shug‘ullanadi. Dunyodagi doimiy o‘zgarishlar tashkilotni yanada faol ishlashga undaydi. Ko‘z o‘ngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot–kommunikatsiya qiyofasida fundamental o‘zgarishlar yasaydigan chuqur jarayonlar ro‘y bermoqda.

Shu bois ShHT doirasida ham integratsiya, umummintaqaviy bozor yaratishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqish borasida birgalikda ishlashimiz juda muhim ahamiyatga ega. Aminmanki, bu masalalarning hal etilishi ShHTga a’zo barcha davlatlarning asosiy manfaatlariga bir xilda mos keladi.”–deb takidlaydi Prezidentimiz I.A Karimov[1]

ShHT ham boshqa tashkilotlar kabi o‘zining tarixi va shakllanish jarayonlariga ega. Shanxay hamkorlik tashkiloti Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlarini o‘z ichiga oluvchi, 2001 yil iyunda tashkil etilgan mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. Tashkilot dastlab 1996 yildan boshlab Shanxay beshligi mexanizmi nomi ostida faoliyat olib brogan bo‘lib, u Xitoy tashabusi ostida tashkil etilgan dastlabki mintaqaviy tashkilot hisoblanadi[2]. Shanxay beshligi mexanizmining eng asosiy maqsadi Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘rtasida chegara muammolarini hal qilib olish va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan. 1989 yil Xitoy va Sovet Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinganidan so‘ng, ikki davlat o‘rtasida chegara masalalarini hal qilishga kirishildi. 1990 yil aprel oyida ikki davlat o‘rtasidagi chegaraning sharqiy qismini aniq belgilab olishda kelishuvga erishildi, lekin muzokaradan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay Sovet Ittifoqi quladi va undan o‘n beshta respublika ajralib chiqdi. Chegara masalasini hal qilish endi Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘rtasida dolzarb muammoga aylandi.

---

[1]Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11. – Т., 2003. –Б.275.

[2] Бекмуратов И.Н. Шанхай хамкорлик ташкилотининг фаолияти ва институциялашиш жараёни. // ЎзР Президенти ћузуридаги давлат ва жамият ќурилиши академияси. –Утв. –Т., 2006. –Б.18.

Rossiya tashabusi ostida Xitoy bilan chegaraviy savdoni yo‘lga qo‘yish va chegara hududlarni qurolsizlantirish yuzasida muzokara olib borildi[1].

1996 yil aprel oyida besh davlat rahbarlari chegara hududlarida harbiy kuch saqlamaslik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan shartnoma imzoladilar. Ushbu shartnoma besh davlat o‘rtasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalarni rivojlantirishni kafolatlovchi hujjat sifatida e’tirof etildi[2]. Ushbu shartnoma ShHT tashkil etilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan “Shanxay beshligi” mexanizmining tuzilishiga sabab bo‘ldi. 1997 yil aprel oyida besh davlat rahbarlari o‘rtasidagi kelishuvdan so‘ng, chegara hududlarida harbiylar sonini qisqartirishga qaratilgan shartnoma imzolandi. 1996 va 1997 yillarda imzolangan, o‘zaro hurmat va  manfaat, tenglik va ishonch prinsiplarga asoslangan ikki shartnoma davlatlar o‘rtasidagi aloqalarga to‘siq bolib kelayotgan harbiy xavfga chek qo‘ydi. Chegara masalasini Shanxay beshligi a’zolari o‘zaro tinch yo‘l bilan hal qilishga kelishib olindi va Xitoy 1998 yil Qozog‘iston bilan, 1999 yil Qirg‘iziston bilan, 2004 yil Rossiya bilan, 2006 yil Tojikiston bilan chegaralarini aniq belgilab oldi[3].

Chegara masalasini hal qilish va o‘zaro ishonchni mustahkamlashdan tashqari, besh davlat rahbarlari mintaqada keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni birgalikda hal qilishga kelishib olishdi. “Uch illat” ya’ni xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizm natijasida Markaziy Osiyodagi vaziyatning murakkablashuvi o‘zaro hamkorlikda muammolarni hal qilishga undadi[4]. Shuningdek, mintaqadagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan narkotraffik, qurol–yarog‘ savdosi, noqonuniy immigratsiya kabi chegaraviy jinoyatlarni oldini olish “shanxay beshligi” mexanizmi doirasida hal qilinishi kerak bo‘lgan muhim vazifalar sifatida belgilab olindi. 1998 yil “Shanxay beshligi” mexanizmi doirasida besh davlat rahbarlari terrorizmni oldini olishga qaratilgan

[1] Meng Xiangqing, ‘Shanghai Five Regime: Successful Practice of New Security Concept. //  PLA Daily, [Jiefangjun Bao], 12 June  2001  –P.46.
[2] Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi. The member states of Shanghai Cooperation Organization. // Changchun: Publishing house. 2007.  – P.92–93.
[3] Jiang Yi. China’s Multilateral Diplomacy and Shanghai Cooperation Organization. Russia-Central Asia-East Europe Studies, [Eluosi Zhongya Dongou Yanjiu ] Issue 5.  2003. – P.49.
[4] Shanxay Hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org

chora tadbirlarni kuchaytirishga qaror qildilar. Xitoy taklifi bilan terroristik tashkilotlar va gruhlar ro‘yxati tuzib chiqildi va ular bilan birgalikda, o‘zaro kuchlarni birlashtirgan holda kurashishga kelishib olindi. Terroristlarni asosiy daromat manbai bo‘lgan narkotikni cheklash maqsadida a’zolar “narkotik savdosiga qarshi hamkorlik” shartnomasini imzoladilar[1].

2001 yil 15 iyunda “Shanxay beshligi” mexanizmi hamkorlikning keying pog‘onasiga ko‘tarildi va u yangi “Shanxay hamkorligi tashkiloti” nomi ostida faoliyat boshladi. ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya qabul qilindi. Uchrashuv davomida qabul qilingan ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya BMTning rasmiy hujjatlari sifatida tarqatilgan edi. Konvensiyaga muvofiq ShHT a’zolari qonunga zid bo‘lgan qilmishlarni oldini olish, bartaraf etish, aniqlash va ko‘rsatish ishida o‘zaro hamkorlik qilishlari kerak edi[2]. 2001 yilgi besh davlat rahbarlari uchrashuvida kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotgan O‘zbekiston tashkilotga a’zo bo‘lib kirdi. Bir yildan so‘ng 2002 yil iyun oyida tashkilotning tuzulishi, mavqei va vazifasini belgilab beruvchi “Shanxay hamkorlik tashkiloti Ustavi” qabul qilindi.

ShHT tashkiloti tuzulganligi rasman e’lon qilingandan so‘ng, ushbu tashkilot qisqa davr mobaynida katta yutuqlarga erishdi. Bu borada Prezident I.A.Karimov quyidagicha munosabat bildiradi: “2001–yilda tuzilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti tarixan qisqa vaqtda zamonaviy geosiyosatning nufuzli xalqaro tuzilmasiga aylandi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor”[3].

ShHT ham boshqa xalqaro tashkilotlar kabi o‘zining maqsad va vazifalariga ega, shu bilan birga a’zolari sonini oshirib borish huquqiga ega, faqatgina boshqa mamlakatlar tashkilot maqsadidan kelib chiqib xohish bildirishi lozim.

Tashkilotga a’zo mamlakatlar Shanxay hamkorlik tashkilotini NATO kabi harbiy blokka aylantirmagan holda avvalo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga

---

[1]Meng Xiangqing. Shanghai Five Regime: Successful Practice of New Security Concept. // PLA Daily, Jiefangjun Bao. June 12. 2001. – P. 87–88.

[2]Центральная Азия и Кавказ. 2008. –№ 60. –С.43–44

[3] Каримов И.А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. –Т.18. –Т., 2010. –Б.234.

qaratib, xalqaro terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, separatizm kabi davlatlar va xalqlar tinchligiga rahna solib turgan salbiy holatlarga qarshi birgalikda kurash olib borish va bu yo‘lda barcha kuch hamda imkoniyatlarni birlashtirishga kelishib olishdi.

Tashkilotga a’zo mamlakatlar tashkilot doirasida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini kuchaytirish, ko‘p tarmoqli munosabatlarni, hamkorlikni rivojlantirish, hududda tinchlik va yangi demokratik tartiblarni o‘rnatishga, birgalikda terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy savdosi va transmilliy jinoyatchilikning boshqa ko‘rinishlarga qarshi birgalikda kurash, hududdagi davlatlar o‘rtasidagi siyosiy va mudofaaga asoslangan hamkorlikni kuchaytirish bilan birga huquqiy himoya, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, fan–texnika, ta’lim–tarbiya, energetika, transport, kredit–moliya va boshqa sohalardagi aloqalarni yanada rivojlantirish dunyo iqtisodiga yanada integratsiyalashish, inson huquqlari va erkinliklari borasida, milliy qonunchilik sohasida hamkorlik qilish, davlatlararo va xalqaro miqyosdagi aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro ziddiyat va muammolarni munozaralar yoki tinch yo‘l bilan bartaraf etish, yangi XXI asrdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va mavjud muammolarni birgalikda hal etish ham tashkilot a’zolari oldida turgan ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaraldi[1]

2002–yilda bo‘lib o‘tgan SHHT konferensiyasida tashkilotning asosiy maqsadlari ko‘rib chiqildi va ular quydagilarda o‘z aksini topdi:

– Ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlikni saqlash;

– Hududlarda har tomonlama xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy–ijtimoiy markazlarni ko‘paytirish;

– Terrozim, separatism,ekstremizm va uning barcha yo‘nalishlariga qarshi, narkotik moddalar, qurol savdosi hamda transmilliy jinoyatlarga va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

[1] Хартия ШОС. - С.1. // http:www.SCO.ru

– Siyosiy, iqtisodiy, savdo sohalarida qonuniylikni yo‘lga qo‘yish, tabiatni asrash, madaniyat va oliy ta'limni rivojlantirish, energetika, transport, bank–kredit tizimini rivojlantirish va boshqa sohalarda hamkorlik qilish;

– Hududlarda iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlanishini ta'minlanishi;

– Dunyo iqtisodiyotida integratsiyalashuv jarayoniga qo‘shilish;

– Hududlarda inson huquqining ta'minlanishi va mamlakatlarda insonlarga yaratib berilgan shart–sharoitlarning ta'minlanishi;

– Xalqaro maydonlarda o‘zaro yordamlashish;

– XXI asrdagi muammolami birgalikda hal qilish[1].

Hozirda SHHTga a’zo davlatlarning umumiy maydoni 34,3 mln kv km2 ni tashkil etadi va bundan 60 foiz hudud Yevroosiyo qit'asiga to‘g'ri keladi. Ularda yashovchi aholi 3 mlrd 40 mln kishi va bu ko‘rsatgich yer yuzidagi aholining yarmini tashkil etadi (2015–yilgi ma'lumot). Tashkilotning rahbari : Rashid Alimov (2012–yilning 7–iyunidan boshlab). Tashkilotning rasmiy tillari: rus va xitoy[2].

XXR tashqi siyosatida ShHTning o‘rni to‘g‘risida gapirganda bir qancha omillarni sanab o‘tish lozim, birinchidan, ShHT doirasida “Shanxay ruhi” dagi maqsadlar ilgari surildi va qoidalar o‘rnatildi. ShHT doirasida tuzilgan qonun–qoidalar, xususan, o‘zaro hurmat va ishonch, umumiy manfaat, tenglik va birgalikda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali rivojlanish nazariyalari Xitoy yangi diplomatiyasining asosini tashkil etadi. Ikkinchidan, ShHTning ochiqlik, boshqa davlatlar bilan ziddiyatlarga bormaslik, qo‘shilmaslik kabi qoidalar, nafaqat tashkilot, balki Xitoy diplomatiyasining muhim qoidalari hisoblanadi. Uchinchidan, ShHT Xitoy tomonidan hozirgi kunda ilgari surilayotgan “Yaxshi qo‘shnichilik” siyosatini olib borishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

---

[1]Shanxay hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org
[2]Шанхайская организация сотрудничества: https://ru.wikipedia.org/wiki/Шанхайская_организация_сотрудничесва

Xitoyning tashkilotdagi faoliyatini a'zo davlatlar yuqori baholaydi, xususan O'zbekiston ham. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010 yil may oyida Oq saroy qarorgohida Xitoy Xalq Respublikasi tashqi ishlar vaziri Yan Szechini qabul qilar ekan, shunday dedi: "Biz Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyati ShHT faoliyatiga qaratayotgan diqqat–e'tibori va ahamiyatini yuksak qadirlaymiz. Mamlakatingizning xalqaro obro'si va toshkentda o'tkazilajak tadbirlarda bunchalik keng ko'lamda ishtirok etishingiz jahon siyosatining zamonaviy arxitekturasida ushbu tashkilot tutgan o'rni va ta'sir darajasini sezilarli mustahkamlaydi"[1].

**Xitoyning yangi diplomatiyasi.** "Yangi diplomatiya " atamasi 1978 yildan boshlab Xitoyning ochiqlik siyosati, iqtisodiyotni tubdan isloh qilinishi va mamlakat rivojlanishi uchun qulay xalqaro muhit yaratish maqsadida ilgari surilgan konsepsiyalar natijasida yuzaga keldi[2]. Ushbu konsepsiyalarni Xitoy ShHT doirasida ham amalga oshirayotganini kuzatish mumkin. Xususan, "Yangi xavfsizlik konsepsiyasi" Xitoy diplomatiyasining muhim mafkuralaridan biri sifatida xizmat qiladi. Sovuq urush tugagach, Xitoy ushbu konsepsiyani dunyo hamjamiyatiga malum qildi. Unga ko'ra davlat suverenitetini hurmat qilish, o'zaro ishonch va manfaat, tenglik tamoillariga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali Xitoy nafaqat dunyo, balki o'z xavfsizligini ham mustahkamlashni ko'zda tutadi. "Yangi xavfsizlik konsepsiyasi"ni amaliyotda joriy qilishda ShHTning o'rni munim ahamiyat kasb etadi. Bunga ko'ra Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlikni taminlashda harbiy ittifoqdoshlar emas, o'zaro hamkorlar bo'lishi lozim. Xitoy ShHTga a'zo davlatlarni ittifoqdoshlar emas, balki turli sohalardagi sheriklar deb nomlash taklifini kiritadi. Bunga ko'ra, ShHT Ustavida belgilanganidek, urush vaqtida yoki a'zo davlatlar boshqa davlatlar bilan mojaroli to'qnashuvga borganda tarafkashlikka yo'l qo'ymasligi va tashkilot a'zolari yuzaga kelgan muammolarga nisbatan holisona munosabat bildirishi kerak, bunga

---

[1]Xalq so'zi. 2010 yil 21 may soni.
[2]Jan Melissen. The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. // Basingstoke: Palgrave-Macmillan. 2005. – P.16–25.

yorqin misol sifatida Rossiyaning 2008 yilda Gruziya bilan ziddiyatli vaziyat yuzaga kelgan va munosabatlar keskinlashgan holatni keltirish mumkin[1].

Shuningdek ShHTga a’zo davlatlar shartnoma va bitimlarni umumiy qarorlar qabul qilish orqali amalga oshiradilar va har bir a’zo qaror qabul qilish jarayonida veto huquqi va tanlash imkoniyatiga ega. Bu orqali davlatlarning katta kichigligi, iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatidan qat’iy nazar ularning tashkilot doirasidagi vakolatlari tengligi taminlanadi. Bu ham ShHT doirasida amalga oshirayotgan Xitoy yangi xavfsizlik konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

**Uyg‘unlashgan dunyo konsepsiyasi. Ziddiyatlarga bormaslik va qo‘shil–maslik prinsipi.** Uyg‘unalshgan dunyo konsepsiyasini ilgari surishdan maqsad madaniyatlar, urf–odatlar va qarashlar xilma–xilligiga qaramay, o‘zararo hurmatga asoslangan, xalqaro huquqda umum etirof etilgan qonun qoidalarga rioya qiladigan, xalqaro masalalarni kengash yordamida hal qiluvchi ko‘plab tarkibiy qisimlarga ega bo‘lgan dunyo tartibotini tashkil etish ko‘zda tutilgan [2]. xalqaro hamjamiyatining barcha a’zolari teng imkoniyatga asoslangan global masalalar yuzasidan o‘tkaziladigan kengash va muzkaralarda ishtirok etish orqali jahon siyosatida birdek ishtirok etishi lozim. Uyg‘unalshgan dunyo konsepsiyasining tub mohiyati doimiy tinchlik va umumiy taraqqiyot hukm suradigan dunyoni qurish. Sovuq Urush davrida yuzaga kelga ikki qutubli dunyoning shakillanishi va AQSH va Sovet Ittifoqi manfaatlarining o‘zaro to‘qnash kelishi natijasida ko‘plab davlatlar zarar ko‘rdi, ayniqsa Markaziy Osiyoda joylashgan ShHTning to‘rt a’zosi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonning tabiiy resurslari va ishchi kuchi xalq taraqqiyotiga emas, dunyoda o‘z ustunligini o‘rnatishga urinayotgan Sovet Ittifoqining harbiy harajatlarini qoplashga, xususan qurol–yarog‘ ishlab chiqarishga xizmat qildi. Ushbu tarixiy jarayondan tegishli xulosa chiqargan holda ShHTga a’zo davlatlar dunyoni yana ikki qutbga bo‘linib qolishiga va Sovuq Urushning qayta yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ko‘p qutubli dunyo

---

[1] Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi. The member states of Shanghai Cooperation Organization. // Chanchu Publishing house, 2007. – P.92–93.

[2] Hu Jintao, “Build Towards a Harmonious World of Lasting Peace and Common Prosperity,” speech at the Plenary Meeting of the United Nations’ 60th Session. // New York. United Nations. 22 September. 2005. –C.5.

tartibotini yoqlab chiqadilar. Uyg‘unlashgan dunyo konsepsiyasiga ko‘ra bir davlat boshqa davlatning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilishi lozim. Ushbu tamoillarga asoslangan holda davlatlar umumiy manfaatlar va teng imkoniyatlar asosida birgalikda harakat qilishi va rivojlanishi kerak. ShHTga a’zo davlatlar faoliyatini kuzatadigan bo‘lsak, Xitoy tashabbusi ostida dunyoning uyg‘unlashuvi asta sekinlik bilan amalga oshirilmoqda. 2016 yil mart oyida Hindiston va Pokiston ShHTga a’zo bo‘lib kirishi to‘g‘risida memorandumning imzolanishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirdi. buning natijasida, ShHTning dunyo miqyosidagi obrusi yana bir pog‘anaga ko‘tarildi. Hozirda tashkilotga a’zo davlatlarda yashovchi aholi soni dunyo aholi sonining yarmini tashkil etadi.

**“Rivojlanishning yangi usuli”** ShHTga a’zo davlatlar tashkilot faoliyatida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muhim vazifalardan biri sifatida tenglik, o‘zaro manfaat va hamma uchun foydali bo‘lgan umumiy taqaqqiyot prinsipi asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni belgilab oldilar. Tashkilot a’zolari turli yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali milliy iqtisodiyotini rivojlantirishi va ijtimoiy barqarorlikni taminlab olishi ko‘zda tutilgan. Bunga ko‘ra tashkilotga a’zo davlatlarning xalqaro maydondagi obrusi, harbiy, siyosiy va iqtisodiy salohiyatlarida katta farq bo‘lishiga qaramasdan ular tashkilot doirasida teng imkonitatlarga ega. Misol uchun, XXR va Rossiya Federatsiyasi katta hududga va ko‘p aholiga ega. Shuningdek, ular Birlashgan Millatlar tashkilotining doimiy a’zolari hisoblanadi. Tashkilotning boshqa Tojikiston va Qirg‘iziston kabi a’zolari hududi, aholisi, iqtisodiy imkoniyatlari uncha yuqori bo‘lishiga qaramasdan ular ShHT doirasida Xitoy va Rossiya kabi davlatlar bilan teng imkoniyatli va o‘zaro manfaatli hamkorlik olib boradilar. Xitoy “Rivojlanishning yangi usuli” konsepsiyasi asosida tashkilot a’zolari o‘zaro yordam berish orqali munosabatlarni chuqurlashtirib, turli sohalardagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etadi.

**Iqtisodiy sohadagi hamkorlik.** Xavfsizlik masalalri bo‘yicha tuzilgan ShHT keyinchalik, iqtisodiy yo‘nalish bo‘yicha ham hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini ko‘rib chiqdi. 2001 yil 14 sentyabrda Qozog‘istonning Olmata

shahrida tashkilotga a'zo davlat rahbarlari iqtisodiy sohadagi hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarini muhokama qilish maqsadida uchrashishdi[1]. Unda mintaqada iqtisodiy hamkorlikning yo'nalishlari va bosh maqsadilariga bag'ishlangan memorandum imzolandi. Uchrashuv so'ngida davlatlar o'zaro savdo va investitsiya sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart sharoit yaratishga kelishib olishdi. Shu davrdan boshlab tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama fan–texnika, ta'lim–tarbiya, energetika, transport, kredit–moliya va savdo sohasida aloqalar yo'lga qo'yilgan va ular hozirda rivojlanib bormoqda.

2002 yil ShHT doirasida iqtisodiy sohada ko'plab yangiliklar amalga oshirildi, xususan a'zo davlatlarning iqtisodiyot va aloqa Vazirlari o'rtasida muntazam konfrensiya o'tkazilishi yo'lga qo'yildi, savdo va moliya tizimi erkinlashtirildi va tabiiy resurslar import va eksport qilishda, savdo, investitsiya sohasidagi aloqalar kengaytirildi. 2003 yil "ShHT a'zo davlatlari o'rtasida ko'p tomonlama savdo va iqtisodiy hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma imzolandi va u ShHT doirasida amalga oshiriladigan iqtisodiy hamkorlikning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlab olishdagi muhim shartoma bo'ldi. Xitoy ShHT doirsidagi iqtisodiy hamkorlikdan manfaatdor davlat hisoblanadi, chunki Xitoyga Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bozoriga kirish, ular bilan tabiiy resurslar, xomashyo import va eksportni kengaytirish katta foyda keltiradi. 2005 yil ShHT ga a'zo davlatlar iqtisodiyot Vazirlari ShHT ichki bank konsortium va ShHT savdo kengashi tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi[2].

Xitoyga nisbatan ShHTning boshqa a'zolari tabiiy resurslarga boy hisoblanadi lekin ularda uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy o'sish rejasi yo'lga qo'yilganli tufayli maxsulot xarid qilish qisman past. Tabiiy resursalarni Xitoyga sotish orqali ular o'z iqtisodlarini mustahkamlab olishlari mumkin. XXRning YIMdagi shiddatli o'sish ShHT davlatlariga ko'plab imkoniyatlar yaratdi, ya'ni a'zo davlatlar ikki

---

[1] Бекмуратов И.Н. Шанхай хамкорлик ташкилотининг фаолияти ва институциялашиш жараёни. // ЎзР Президенти ђузуридаги давлат ва жамият ќурилиши академияси. – Утв. – Т., 2006. –Б.18.
[2] Shanxay Hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org

tomonlama kelishuv asosida Xitoy investorlari va texnika–texnologiyasi o‘zlariga kiritishlari mumkin. Shuningdek Xitoyning rivojlanish tajribasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Dastlab tashkilot doirasida uncha katta ahamiyatga ega bo‘lmagan iqtisodiy hamkorlik hozirga kelib ShHTning rivojlantirishdagi muhim omil sifatida baholanmoqda. 2006 yil 16 iyulda tashkilotga a’zo davlatlar rahbarlari energiya sohasida hamkorlikni kengaytirish iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni ta’kidlab o‘tdilar. Xususan, enrgetika sohasida Rossiya Prezidenti Vladimir Puti tashkilot doirasida “energiya klub”ini tashkil etishni taklif etdi. Xitoy esa Xitoy, Hindiston, Pokistonnig Rossiya, Eron, Qozog‘iston va O‘zbekistonning boy resurslariga bo‘lgan talabni ortib borayotganini hisobga olgan holda, tomonlarni birlashtiruvchi “ShHTning energetika sohasidagi hamdo‘stligi” ni yo‘lga qo‘yishni taklif etadi[1]. Ushbu takliflar haligacha amaliyotda joriy etilmadi. Lekin “Yekaterinburg deklaratsiyasi”da mintaqada iqtisodiyotni rivojlantirishda energatika sektori muhim o‘rin egallashi belgilab qo‘yildi.

So‘ngi yillarda ShHT doirasida tashkilot a’zolari neftni qidirish, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashish sohasida o‘zaro hamkorlikni kengaytirib bormoqda. Buni ikki tomonlama shartnomalarda ko‘rishimiz mumkin, misol uchun Xitoyning “Sinopek” va “China National Petrol” korporatsiyasi va Rossiyaning “Rostneft” kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan, uzoq muddatga mo‘ljallangan shartnoma imzolandi. 2008–yil Xitoyning “Sinopek” korporatsiyasi Qozog‘istonning “Petro Kazakhstan Ink” aksiyalarini sotib oldi va mamlakatdagi neftni qidirib topish va qazib olish uchun 300mln AQSH dollari ajratdi, O‘zbekistonning “Milliy neft va gaz korporatsiyasi” va “CNPC” o‘rtasida “Osiyo Trans Gaz” tashkil etildi[2]. ShHT doirasida ko‘p tomonlama energetika hamkorligi ham yo‘lga qo‘yilgan. 2009 yil 14 dekabrda Xitoy–Markaziy Osiyo gaz quvuri ishga tushurildi. U O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston orqali o‘tagan

---

[1] Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. –Т., 2010. –С.37.

[2] Хамраев Ф.М. Особенности стратегии Китая в Центральной Азии. трансформация и обновление:ежегодное издание ИДВ РАН. 2010. –С.78.

bo‘lib, u 2011 yilda to‘liq qurib bitkazildi. 2009 yil dunyoda moliyaviy inqiroz davrida Xitoy Rossiya va Qozog‘iston bilan neftni Xitoyga eksport qilish evaziga qarz berishga oid shartnoma imzoladi.

2013 yil 16 sentyabrda Qozog‘iston poytaxti ostona shahrida, Nazarboyev universitetidagi chiqishida XXR raisi Si Szipin Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya va XXR o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning o‘ziga xos yangi shakli, “Ipak yo‘li iqtisodiy belbog‘i” loyhasini taklif qilishi va uni amalga oshirishga bo‘lgan xarakatlar ushbu mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlkning rivojlanish suratini jadallashtirdi[1].

**“Yangi Sivilizatsiya” nazariyasi va ShHT.** “Yangi Sivilizatsiya ” nazariya–si davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni va Xitoyning “yaxshi qo‘shnichilik” diplomatiysini rivojlantirishga qaratilgan. Unga ko‘ra ShHT davlatlari o‘ziga xos tarixiy an’ana va qadriyatlarga va davlatlar tomonidan olib borilayotgan mustaqil ichki va tashqi siyosati va rivojlanish xususiyanlariga nisbatan o‘zaro hurmatda bo‘lishi lozim. 2001 yil may oyida tuzilgan va barcha a’zo davlatlar tomonidan tasdiqlandan “Shanxay hamkorlik tashkilotining Ustavi”da belgilab qo‘yilganidek[2]:

davlatlar sivilizatsiyalar xilma xilligini xurmat qilishi, zaddiyatlarga barham berishi, o‘zaro ishonchni mustahkamlashi kerak. Barcha mamlakatlar bir–birining kuchiga tayanib, tenglik asosida birgalikda uyg‘unlashgan dunyoni qurishi lozim. Bu davlatlarning birgalikda rivojlanishiga kafolat bo‘ladi.

Asrlar davomida Markaziy Osiyo turli xil millatlar, madaniyatlar va dinlar kesishgan hudud bo‘lib kelgan, shu sababli ular o‘rtasida madaniy xilma xillik mavjud. Bundan tashqari, tashkilotga a’zo davlatlar iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichida va siyosiy tizimida ham farq mavjud. “Yangi sivilizatsiya” nazariyasining ahamyatli jihati shundaki, sanab o‘tilgan masalalarni siyosiy muzokaralar olib borish va madaniy almashuv orqali tashkilot azolari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarga chek qo‘yish va aloqalarni har taraflama rivojlantirish

---

[1] Си Цзиньпин. О государственном управлении. // Пекин. Издательство литературы на иностранных языках. 2014. –С.387–389.

[2] Shanxay hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org

ko'zda tutilgan. Madaniy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ShHT doirasida davlatlar o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama madaniy tadbirlar o'tkazib turiladi. Misol uchun, Xitoy O'zbekiston va Qozog'istonda Xitoy madaniyat markazini tashkil etgan. Qozog'istonda "Xitoy madaniyat kuni", Xitoyda "O'zbek madaniyat kuni" nomi ostida bir nechta tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Til o'zaro aloqalarni rivojlntirishdagi kalit vazifasini bajarib kelmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyada tashkil etilgan Konfutsiy institutlari o'zaro madaniy almashuv va til o'rganishda muhim ro'l o'ynaydi[1].

ShHTning xalqaro miqyosdagi ahamyatining ortishida O'zbekiston ham muhim ro'l o'ynaydi. Xususan, 2010 yil 10–11 iyun kunlari Toshkent ShHTning navbatdagi sammiti o'tkazildi. Unda ShHTga yangi a'zolarni qabul qilish tartiblari to'g'risidagi Nizom qabul qilindi[2]. Bu Nizom aslida Tashkilotga kirishga istak bildirgan davlatlarni qabul qilish mexanizmini tartibga solish maqsadida ShHTga a'zo mamlakat maqomini olish uchun ariza bergan davlatning majburiyatlari to'g'risidagi namunaviy memorandumni 2011 yil 14–15 iyun kunlari Ostonada bo'lib o'tgan sammit chog'ida imzolandi.

Sammitda O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov ShHTning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladigan quyidagi omillarni alohida ta'kidlab o'tadi.

Birinchidan, ShHT o'zining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlashning ishonchli kafolati sifatida maydonga chiqmoqda, dunyo tez o'zgaruvchan, notinch bo'lib turgan hozirgi zamonda bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, bu ijtimoiy–siyosiy, sotsial–iqtisodiy va gumanitar sohalarda ko'p tomonlama samarali hamkorlikni tashkil etish borasida qo'yilayotgan va bajarilayotgan vazifalar, buning uchun zarur shartnomaviy huquqiy asosni shakllantirish va har bir mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirishdir.

---

[1] Shanxay hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org

[2] Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010. –С.33.

Uchinchidan, ShHT davlatlarning teng huquqli birlashmasi bo‘lib, uning faoliyati boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilmagan va qarama–qarshilik qiladigan blok xususiyatiga ega emasligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.[1]

Shu kabi Prezidentimiz tomonidan ShHT sammitida aytib o‘tilgan fikrlar va berilgan takliflar tashkilot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va uning faoliyatida O‘zbekistonning ishtiroki qay darajada ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi. Shu o‘rinda takidlash kerakki, ushbu yilda o‘tkaziladigan ShHTning navbatdagi sammitiga O‘zbekiston raislik qiladi va u 2016 yil 23–24 iyun kunlari o‘tkazilishi kutilmoqda[2].

Xulosa qilib aytganda,  XXR tashqi siyosatida ShHT muhim ahamiyatga ega va uni rivojlantirish Xitoy tashqi siodatida asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi. XXRning tashabusi bilan ShHT doirasida olib borilayotgan “Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”, “Rivojlanishning yangi usuli”, “Yangi sivilizatsiya nazariyasi” kabi tashabbuslar tashkilotning xalqaro munosabatlardagi o‘rning yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda. So‘ngi yillarda Xitoyning ShHT doirasidagi say xarakatlari natijasida Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya federatsiyasi bilan energetika, transport–kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik keng yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayon o‘zaro do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va turli sohalarda aloqalarni kengaytirilishi mintaqadagi barqarorlikni va iqtisodiy o‘sishni taminlamoqda.

Hozirda  davlatlarda ushbu tashkilotga a’zo bo‘lib kirishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, 2016 yil mart oyida Hindiston va Pokistonning tashkilotga a’zo bolib kirishi to‘g‘risida memorandum imzolandi. Afg‘oniston, Belarusiya, Eron va Mo‘g‘iliston davlatlari kuzatuvchi maqomiga ega.

---

[1] Ўзбекистон овози. 2011 йил. 18-июн. №73 (31.349). –Б.3.
[2] http://www.ung.uz/press_center/uz_news/2016/01/14/2016-yilning-yozida-toshkent-shht-sammitini-qabul-qiladi

# XULOSA

Xulosa qilib aytganda hozirda dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayoni shu darajada shiddatli tus olmoqdaki, xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy o‘zgarish va yangiliklarni oldindan baholash qiyin masala bo‘lib bormoqda. Dunyo mamlakatlari siyosiy–iqtisodiy tarqqiyoti o‘zining ma’no–mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihati– bugungu kunga kelib dunyoning ikki yuzga yaqin davlatlarining tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidadir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatni ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning jahon siyosiy sahnasida o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashning kuchayishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida Osiyo mamlakatlarida yuz bergan keskin o‘zgarishlar, xususan, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya iqtisodiyotidagi qisqa muddatda iqtisodiyot sohasida erishilgan ulkan natijalar, dunyo tarozi pallasi G‘arb davlatlardan ko‘ra Osiyo davlatlari tarqqiyot usuli ustunligini ko‘rsatmoqda va bu dunyoning ko‘plab iqtisot va siyosat sohadagi olimlari tomonidan ham etirof etib kelinmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi kunga kelib Osiyoda ko‘plab yo‘nalishlarda mutloq ustunlikka erishgan Xitoy Xalq Respublikasi nafaqat mintaqa, balki dunyo siyosiy sahnasida muhim rol o‘ynamoqda. XXRning hozirgi kunda erishgan yutuqlarini quyidagi bir qancha omillar bilan baholash mumkin:

- Hududi jihatidan dunyodagi eng yirik davlatlardan biri;
- Aholisi ko‘pligi jihatidan dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi;
- Yadro quroliga ega sakkizta davlatdan biri hisoblanadi;
- “Dunyo ustaxonasi” nomiga ega bo‘lgan davlat, ya’ni dunyo maxsulot–larining ko‘p qismi Xitoyda ishlab chiqariladi, shu sababli Xitoy eng yirik aksport qiluvchi davlatlardan biri sanaladi;
- Qisqa davr mobaynida Xitoy iqtisodiy yuksalishda katta yutuqlarga erishdi;
- YIM bo‘yicha AQSh dan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi;
- Mintaqaviy va Xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etib keladi. BMT xavfsizlik kengashining doimiy a’zosi.

Ushbu sanab o‘tilgan omillardan ko‘rinib turibdiki, dunyo xavfsizligi va siyosiy–iqtisodiy barqarorlikni taminlashda XXRning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Jahon siyosatidagi o‘rni va xalqaro munosabatlarda olib borayotgan diplomatiyasini hisobga olgan holda hozirgi globallashuv sharoitida XXR tashqi siyosiy faoliyatiga doir quydagi umumiy xulosalarni keltirib o‘tish mumkin:

1. XXR tashqi siyosatining o‘ziga xos jihati, u doim tinchlik tarafdori hisoblanadi. Hozirgi shiddatli zamonda yuz berayotgan turli xil nizolarni faqatgina diplomatik yo‘l bilan, ya’ni muzokaralar o‘tkazish orqali hal qilishni Xitoy qo‘llab quvatlaydi va har qanday harbiy tahdid va qurolli to‘qnashuvlar kelib chiqishiga qattiq qarshilik qiladi. Buni Yaqin sharqdagi majarolar, suriya muammosi va Ukrainada yuzaga kelgan notinchlik masalasi bo‘yicha Xitoy hukumati tomonidan berilgan bayonotlarda ko‘rish mumkin. Shuningdek, Xalqaro xavfsizlikka katta ta’sir etuvchi terrorizm, ekstremizm va separatism kabi tahdidlarga qarshi kurashda faol ishtirok etadi. XXR dunyoda tinchlikni saqlashning eng samarali vositasi sifatida davlatlar o‘rtasida turli sohalarda o‘zaro ishonchga asoslangan aloqalarni rivojlantirishda deb biladi. Shu sababli Xitoy bugungi kunga kelib dunyoning ko‘plab davlatlari bilan diplomatik munosabatlar o‘rrnatgan bo‘lib, ular bilan iqtisodiy va siyosiy sohalarda keng aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

2. Xitoy davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro tenglik va manfaatlar uyg‘unligini taminlashdagi xarakatlarda faol ishtirok etadi. Ma’lumki, ikkinchi jahon urushidan so‘ng, Sovuq urush davomida dunyo ikki qutubga ajralib qoldi. Bular AQSh boshchiligidagi kapitalistik davlatlar va SSRI boshchiligidagi sotsialistik davlatlar. Ushbu bo‘linish natijasida kichik yoki uncha katta kuchga ega bo‘lmagan davlatlar AQSh va SSRI manfaatlari yo‘lida qurbon bo‘ldi. Ushbu davrda davlatlarning milliy manfaati va o‘zaro tengli prinsipi xalqaro munosabatlarda brogan sari o‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotgan edi. Tarixiy tajribalarni inobatga olgan holda hozirgi kunda XXR o‘zining tashqi siyosatida “ko‘p qtubli dunyo”konsepsiyasini ilgari suradi. Bunga ko‘ra Xitoy dunyo yagona kuch nazorati ostida bo‘lishiga qarshi chiqadi va dunyoda muvozanatni, davlatlar

o‘tasida tenglikni taminlashni tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida qaraydi.

3. XXR tashqi siyosatida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o‘rni ham muhim ahamiyatga ega. 2003–yil Xitoy “tinch yuksalish” konsepsiyasini igari surdi. 2004–yilda Xitoy Bosh Vaziri Ven Tziabao o‘z nutqida tinch yuksalishni amalga oshirishda Xalqaro tashkilotlarning ahamiyati muhim ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Hozirda XXR ko‘plab xalqaro tashkilo a’zosi hisoblanadi. Xususan, bular ichida eng kattalari BMTning a’zosi, 1971–yildan boshlab undagi Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zosi. 2011–yildan Jahon Savdo tashkiloti, 1991–yildan APEC, 1997–yildan ASEAN, 2001–yildan Shanxay hamkorlik tashkiloti a’zosi sifatida ushbu tashkilotlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Xitoyning Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda ishtirok etishdan ko‘zlagan maqsadi dunyo hamjamiyati bilan yaqin munosabatda bo‘lish va davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish.

4. Bugungi Xitoyning xalqaro munosabatlardagi o‘rnini belgilashda uning olib borayotga tashqi iqtisodiy siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Xitoy Xalq Respublikasining hozirgi vaqtdagi tashqi iqtisodiy faoliyati iqtisodiyotning rivojlanish samaradorligiga, ichki va tashqi omillar muvozanatiga bevosita ta'sir ko‘rsatuvchi alohida sohasiga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida, bozor islohotlari yangi yo‘nalishlarining tatbiq etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni talab qiladi. Ochiqlik siyosati Xitoy iqtisodiy islohotlari va modernizatsiyasining asosi hisoblanadi. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi dasturining muhim yo‘nalishlaridan biri – bu mamlakatni jahon xo‘jaligiga, shu jumladan xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi strategiyasidir. Bu asosiy iqtisodiy strategiya bo‘lib, u jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonida milliy iqtisodiyotlarning barqaror holatni egallashiga imkon beradi. Hozirgi vaqtda Xitoyning ochiqlik siyosati global xarakter belgilariga ega bo‘lmoqda. U mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kelishini va xorijga Xitoy investitsiyalari olib chiqilishini qo‘llab–quvvatlaydi.

5. XXRning hozirgi Globallashuv sharoitidagi olib borayotgan tashqi siyosatida hukumat va davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilayotgan turli xil konsepsiyalar Xitoy dimlomatiyasining jahon siyosatidagi ahamiyatini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Xususan, bular sirasiga “Uyg‘unlashga dunyo”, “Tinch yuksalish”, “ko‘p qutublilik”, “Xitoy orzusi”, “yangicha sivilizatsia” kabi konsepsiyalarni kiritish mumkin. Ushbu nazariyalar Xitoy tashqi siyosatni olib borishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu Bitiruv Malakaviy ishida hozirgi globallashuv jarayoning chuqurlashuvi sharoitida XXR tashqi siyosati yetakchi tendensiyalari mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quydagi takliflar berildi:

– XXR hozirgi kunda o’z tashqi siyosatida mintaqaviy tinchlik va barqarorlikka xavf tug’diruvchi Afg’oniston masalasiga yanada jiddiyroq yondashuvi lozim;

– Xalqaro savdo–sotiq munosabatlarida noqonuniy tovar ayirboshlashni oldini olishga alohida e’tibor berishi lozim;

– BMT doirasidagi faoliyatini yanada kengaytirish, ushbu tashkilotning xalqaro munosabatlarda barcha masalalarni hal qiluvchi tashkilot sifatidagi obrusini doimiy saqlab turishiga ko’maklashish.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## 1. Me’yoriy – huquqiy hujjatlar:

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2015.

1.2. Конституция КНР Принята на 5–й сессия Всекитайского собрания народных представителей 5–го созыва 4 декабря 1982г (с измю 188б 1993 б 1999 б 2004 гг).

1.3. “Declaration on Fifth Anniversary of Shanghai Cooperation Organisation,” the Shanghai Cooperation Organisation Web site, June 15, 2006.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi. 9/1 (1437) soni. –T., 2012.

1.5. Ўзбекистон Республикаси билан Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асосий принциплари, ўзаро манфаатли ҳамкорликни янада ривожлантириш ва чуқурлаштириш тўғрисида баённома. // Халқ сўзи. 1994 йил 28 октябрь сони.

## 2. Rahbariy adabiyotlar ro’yxati. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

2.6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.2. –T.: O‘zbekiston, 1996. – 380 b.

2.7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. –T.9. –T.: O‘zbekiston, 2001. – 432 b.

2.8. Karimov I.A.. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.10. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 432 b.

2.9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l–demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. –T.11. –T.: O‘zbekiston, 2003. – 320 b.

2.10. Karimov I.A. Tinchlik va xafsizligimiz o‘z kuch–qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog‘liq. –T.12 –T.: O‘zbekiston, 2004. – 400 b.

2.11. Karimov I.A.. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.13. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 264 b.

2.12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997. – 326 b.

2.13. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlishtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish–barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 320 b.

2.14. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma–bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash–bizning oliy maqsadimiz. – T.17. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 264 b.

2.15. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.– 176 b.

2.16. Каримов И.А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. –Т.18. –Т., 2010. – 234 б.

2.17. Karimov I.A.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015. –100 b.

2.18. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l–demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. –T.11 SHanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutq. Moskva shahri, 2003 yil 29 may. –169 b.

2.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 2014 yil 13 sentyabr soni, –№ 178.

2.20. Karimov I.A. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisida so‘zlangan nutq. // Xalq so‘zi. 2010 yil 22 sentyabr soni. –№ 125.

2.21. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish– taraqqiyotimizning muhim omili. Prezident Islom Karimovning o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so‘zi, 2010 yil 8 dekabr.

2.22. Си Цзиньпин. О государственном управлении.//Пекин. Издательство литературы на иностранных языках. 2014. –624 с.

## 3. Ilmiy adabiyotlar

**Darsliklar:**

3.23. Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. –T.: JIDU nashriyoti, 2005. – 160 b.

3.24. Sharipov F. Siyosatshunoslik, Darslik, 3–kitob, –T.,1996.

3.25. G‘afurov S, Xaydarov A, To‘laganova N. Siyosatshunoslik asoslari, Darslik. –T., 2006.

3.26. Odilqoriev X.T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik –T. “O‘qituvchi” NMIU, 2009, –344 b.

3.27. Umarov X.P. O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy holati.// Sharqshunoslik. 2007. –№ 2. –114 b.

3.28. Хамраев Ф.М. Особенности стратегии Китая в Центральной Азии. трансформация и обновление:ежегодное издание ИДВ РАН. 2010. –78 с.

**O’quv qo’llanmalar:**

3.29. Melibayeva G.A, Gaziyev F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. // o‘quv qo‘llanma. –T., 2011. –284 b.

3.30. Xo’jayev A.B. Buyuk Ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar.// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 2007. –280 b.

3.31. Отамуродов С. Эргашев И, Акромов Ш, Қодиров А. Политология. ўқув қўлланма. – Т., 1999. –191 с.

**Monografiya va maqolalar:**

3.32. Шазаманов Ш.И. Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти,2014. –167 б.

3.33. Идиров У.Ю. Замонавий Хитой ташқи сиёсатидаги етакчи тенденциялар./ Мақола."Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат" мавзусидаги XII илмий-амалий конференсия материаллари тўплами: Тошкент,28 ноябр 2015 йил.-Т.:ТДШИ,2015-245-246-б.

3.34. Bekmuratov I.N. Xitoy tashqi siyosati mentaliteti: yangi asr ehtiyoji.//Maqola. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.:2014.

3.35. Хашимова С.А. Revival of the Great Silk Road: New horizons for cooperation between China and Central Asian countries. Мақола. Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат мавзусидаги XII илмий-амалий конференсия материаллари тўплами: Тошкент., 28 ноябр 2015 йил.

3.36. Шарапов А.Бугунги Хитой Халқ Республикасининг Жаҳон сиёсатидаги ўрни.// Мақола. “Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа,тарих, иқтисод ва сиёсат” мавзуидаги XII илмий-амалий материаллари тўплами. Тошкент, 28-ноябр 2015-йил.-Т.: ТДШИ,2015.–286 б.

**Doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari:**

3.37. Сабитов Ш.А. Внешняя политика Китая в годы реформ (1978–1998г.) и перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан [Рукопись] : дис. ... канд. полит. наук : 23.00.02 / Шукур Абдурахманович Сабитов ; МИД РУз Ун–т Мировой Экономики и Дипломатии. – Т., 2002. – 167с.

3.38. Шазаманов Шоазим Ибрагимович. Сиёсий барќарорлик ва тараќќиёт (Хитой тажрибаси) [Manuscript] : дис. ... сиёсий фан. номзоди : 23.00.02 / Шоазим Ибрагимович Шазаманов ; ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат шарќшунослик ин–ти. – Т., 2002. – 139 б.

3.39. Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007. 4–бет.

3.40. Бекмуратов И.Н. Шанхай хамкорлик ташкилотининг фаолияти ва институциялашиш жараёни: Дис.сиёсий фан. номзоди : 23.00.02/ И.Н. Бекмуратов; ЎзР Президенти ћузуридаги давлат ва жамият ќурилиши академияси. – Утв. 28.11.2006; К.28.11.06–20058/562/08. – Тошкент, 2006. – 147 б.. – Библиогр.: б.134–147.

3.41. Маннонова О.С. Политологическое изучение проблем регионально развития безопастности и интеграции в Центральной Азии в зарубежной русскоязычной литературе//Диссертация на соиск.науч.степени канд.полит.наук. Ташкент, 2001.

3.42. Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010.

**Rossiyada chop etilgan adabiyotlar:**

3.43. Михеев В.В. Китай: угрозы, риски, вызовы развитию // Московский Центр Карнеги – М., 2005. – 563 с.

3.44. Рожков И.Я. Реалии и имиджи современного Китая. –М.: МГИМО(У) МИД РФ –2006 –288 с.

3.45. Торкунова А.В. Современный международные отношения.// Учебник. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН). 1999. –355 b.

3.46. Гудощников Л.М Эволюция политических институтов Китая во второй половине XX в. -начале XX1 в.// Политические системы и политические культуры Востока. –М., 2007 –156 с.

3.47. Лузянин С., Сафронова Е., Свешников А.(2006) Некоторые итоги внешнеполитической активности КНР в 2005 году // Проблемы Дальнего Востока, –М., –№3. –234 с.

3.48. Жуков С.В., Резникова О.Б. Центральная Азия и Китай: экономическое взаимодействие в условиях глобализации. –М. : ИМЭМО РАН. 2013.

3.49. Воскресенский А. Китай и мир глазами Китая // Свободная мысль, №10. –325 с.

3.50. Наумов С.Н. Из Истории Появления Картографического Термина Великий Шелковый Путь. // Алматинский филиал Санкт-Петербургского Гуманитарного университета профсоюзов. 28 май 2011 г. –128 с.

3.51. Амребаев А. Экономический пояс Великого Шелкового пути: от идеи к реальности // Казахстан в глобальных процессах. –М., 2014. – № 3. –39 с.

3.52. Бугаенко А. Экономический пояс Шелкового пути: цели и перспективы // Казахстан в глобальных процессах. – М.,2015. – № 1. –176 с.

3.53. Сафранчук И.А. Концепция «Новый шелковый путь» и политика США в «Большой Центральной Азии» // Международная жизнь. 2013. №7. –187 с.

3.54. Чжоу Ихуан. Дипломатия Китая . // Межконтинентальное издательство китая . 2005 г. –195 с.

3.55. Лю Цзайци. Внешняя политика КНР и перспективы Китайско-Российских отношений. / Л. Цзайци // Мировая экономика и международные отношения. –М., 2004. - № 9. –346 с.

3.56. Ма Юань. Новый шелковый путь: Заново пройденный маршрут.//Межконтинентальное издательство Китая. 2014. –443 с.

**Xorijda chop etilgan adabiyotlar:**

3.57. Timothy Garton Ash, "China Arrives as a World Power Today – And We Should Welcome It', The Gaurdian, 2 April 2009, –87 p.

3.58. Carlson, Allen, Unifying China, Integrating with the World: Securing Chinese Sovereignty in the Reform Era, Stanford, Calif.: Stanford University Press, 2005. –366 p.

3.59. Ronald Tammen, "The Impact of Asia on World Politics: China and India Options for the United States", International Studies Review, Vol. 8, No. 4 (December 2006), –564 p.

3.60. Jan Melissen. The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. // Basingstoke: Palgrave-Macmillan. 2005. –378 p .

3.61. Meng Xiangqing, 'Shanghai Five Regime: Successful Practice of New Security Concept. // PLA Daily, [Jiefangjun Bao], 12 June 2001 –P.46.

3.62. Scholte J.A., Globalization: A Critical Introduction.//Palgrave. New York 2000. –143 p.

3.63. Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi. The member states of Shanghai Cooperation Organization. // Changchun: Publishing house. 2007. –92 p.

3.64. Zheng Bijian. China's Peaceful Rise: A new path for china's peaceful rise and the future of asia Bao Forum for Asia. 2003. – P.20.

3.65. 袁鹏 [Yuan Peng], '中国真正的挑战是未来 5–10 年. 人民日报 2014.

3.66. 陈岳 [Chen Yue], '中国当前外交环境及应对', 现代国际关系. 人民日报 2011.

3.67. 陈抗, L. Hillman, Cai Tuo. 全秋华观念与中国对外的转型改革开放 30 年的外交哲学身世。世界经济与政治 号. 11, 年 2008.

3.68. Qin Yaqing and Zhu Liqun,: 新国际主义与中国外交外交评论.号. 5, 年 2005.

3.69. Qin Yaqing, ‘五政府文化与国际暴利–大国的强行崛起与和平发展，中国社会科学 号. 5, 年 2004.

3.70. Zhu Liqun and Huang Chao,: 中国参与国际体系的评估指标里挤相关缝隙，江海学刊 5, 年 2009.

## 4. Davriy nashrlar:

4.71. Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18–июн. №73.

4.72. Жэньминь жибао. Давлат кенгаши раиси Вэй Цзябао хитойлик ва чет эллик журналистлар учун матбуот конференциясида. // Пекин. 2004г 15 март.

4.73. Доклад Чжоо Цзяна//Жэнминь Жибао.24.06.1983.

4.74. Бергер Я. Китай – глобальная держава XXI века. // Азия и Африка сегодня. – М., 2006. – № 8.

4.75. Michael Wines and Edward Wong, “An Unsure China Steps onto the Global Stage”, New York Times, 2 April 2009.

4.76. C. Fred Bergsten China's Rise: Challenges and Opportunities.Washington Post, 2008.

4.77. Nicholas R. Lardy The Future of China's Exchange Rate Policy.Washington Post 2009.

4.78. Derek J. Mitchell China: The Balance Sheet–What the World Needs to Know Now about the Emerging Superpower (Public Affairs 2006), and coeditor of China and the Developing World: Beijing's Strategy for the 21st Century (2007).

4.79. Katrin Bennhold, “As China Rises, Conflict With West Rises Too”, New York Times, 17 January 2010.

4.80. 袁鹏 [Yuan Peng], ‘中国真正的挑战是未来 5–10 年’ [China’s Real Challenge is the Next 5–10 Years], 人民日报 [People’s Daily].

## 5. Internet axborot resurslari:

5.81. XXR Tashqi Ishlar Vazirligining rasmiy sayti: http://www.fmprc.gov.cn

5.82. Shanxay hamkorlik tashkilotining rasmiy sayti: www.sectsco.org

5.83. Дальневосточное отделение Российской академии наук: http://www.febras.ru

5.84. Узбекистан в качестве председателя ШОС проинформировал ООН о деятельности организации: http://eurasnews.ru/uzbekistan/Узбекистан_в_качестве_председателя

5.85. O’zbekiston–Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O`zbekiston_Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlari